

O'qituvchi nimani o'ylaydi?



O'quvchilik yillarimiz ustozdan a'lo baho olish mushkul edi. Sinfda a'lochilar sanoqli bo'lardi. Keyinchalik a'lochilar va o'rtacha o'qiganlarning aksariyati oliy o'quv yurtiga o'z bilimi bilan kirdi. Chunki baholar haqqoniy edi. Hozir hamma a'lochi. Kimo'zarga "5" yig'iladi.

4-bet

"Qariganda ko'chada goldim-ku, bolam!"

— deydi buxorolik faxriy o'qituvchi, II guruh nogironi Sa'din Qurbonov

7-bet

Mutasaddilardan javob keldi

Maktab direktori nega jazolandi?

O'rganish jarayonida maqolada keltirilgan aksariyat holatlar o'z tasdig'ini topib, ularni bartaraf etish borasida zarur chora-tadbirlar belgilandi.

9-bet

Kuch — bilim va tafakkurda

Marifat

1931-yildan chiqa boshlagan • e-mail: info@marifat.uz • 2019-yil 21-sentabr, shanba № 73 (9242)

Xalq ziyolilari gazetasi



Turkiy kengash doirasidagi hamkorlikdan manfaatdormiz

12-bet

Maktabgacha ta'lim

Baxtli bolalar maskani

So'nggi yillarda Sergeli tumanida ko'plab o'zgarishlar, yangilanishlar bo'ldi. Uy-joyga muhtoj ko'plab oilalar tumanda barpo etilgan arzon narxlardagi xonadonlarning egasiga aylandi. Shu bois hududda 2017-yildan buyon aholi soni orta boshladi. Mazkur omil hisobga olinib, yangi turarjoy binolari yaqinida ta'lim muassasalarini qurish ishlari boshlab yuborilgan edi.



Kuni kecha tumanda ikkita davlat maktabgacha ta'lim tashkilotining ochilish marosimi bo'lib o'tdi. Marosimda Maktabgacha ta'lim vaziri Agreppina Shin va

Toshkent shahar hokimligi, Respublika "Nuroni" jamg'armasi vakillari ishtirok etdi.

3-bet

Diqqat, yangi rukn: TARIXDAGI BUGUN

Sentabr so'ngidagi muhim voqealar

Sentabr 2019						
						1
2	3	4	5	6	7	8
9	10	11	12	13	14	15
16	17	18	19	20	21	22
23	24	25	26	27	28	29
30						

Vatanimiz tarixi turli davrlarda ro'y bergan muhim hodisalarga boy. Bunday voqeliklar 365 yoki 366 kunlik yilning bir yoki bir necha kunida yuz berishi ayon. Shuning uchun ham vaqt o'tgani sari bashariyat o'tmishida yuz bergan hodisalarni birlashtiruvchi yana bir jihat bo'y ko'rsata boradi. Bu ham bo'lsa, yilning muayyan sanasida yuz bergan o'nlab, yuzlab voqealardir.

To'g'ri, taqvimning bir sanasida sodir bo'lgan o'zgarishlar asrlarning turli yillarida yuz bergan. Biroq turfa yilda sodir bo'lishiga qaramay, ayni bir sanada bo'lib o'tgan voqealar bir tizimga solinsa, tarixni yanada yaxshiroq idrok etish imkoni paydo bo'ladi.

Xo'sh, ayni bugungi kundan yuz, ikki yuz, bo-ringki, ming yil oldin qanday voqealar sodir bo'lgan? Ushbu kun tarixini qay hodisalar boyitmoqda? Quyida O'zbekiston tarixidagi sentabr so'ngidagi ana shunday ma'lumotlar bilan tanishasiz.

6-bet

PREZIDENT XORIJIY DAVLATLAR ELCHILARIDAN ISHONCH YORLIQLARINI QABUL QILDI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 20-sentabr kuni Afg'oniston Islom Respublikasi, Hindiston Respublikasi, Buyuk Britaniya va Shimoliy Irlandiya Birlashgan Qirolligi, Yaponiya hamda Fransiya Respublikasining mamlakatimizdagi favqulodda va muxtor elchilari etib tayinlangan Ahmad Holid Elmiy, Santosh Ja, Timoti Torlot, Yoshinori Fujiyama va Izabel Servoz-Galluchidan ishonch yorliqlarini qabul qildi.

Davlatimiz rahbari elchilarni O'zbekistondagi diplomatik missiyasini boshlagani bilan samimiy tabriklab, ularga ushbu sharafli va mas'uliyatli vazifada muvaffaqiyatlar tiladi.

Mamlakatimiz taraqqiyotining yangi bosqichida davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarni qamrab olgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilayotgani alohida ta'kidlandi.

Besh yillik Harakatlar strategiyasi izchil amalga oshirilmoqda, unga muvofiq joriy yil yurtimizda Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili deb e'lon qilingan. Innovatsion texnologiyalar va yondashuvlar asosida zamonaviy sanoat korxonalar va infratuzilma yaratilmoqda, bank, moliya va soliq sohalarda tub islohotlar amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston ochiqlik, yaxshi qo'sh-nichilik, teng huquqlilik, o'zaro hurmat va manfaatlarini hisobga olish tamoyillariga asoslangan faol va konstruktiv tashqi siyosat yuritmoqda. Natijada bugungi kunda mamlakatimizning mas'uliyatli va ishonchli xalqaro sherik sifatidagi mutlaqo yangi imiji shakllandi.

Eng avvalo, yaqin qo'shnilar bilan do'stlik munosabatlarini, birodarlik rish-

tarlarini, strategik sheriklikni mustahkamlash Markaziy Osiyoda prinsipial jihatdan yangi siyosiy muhit yaratishga xizmat qildi.

BMT, MDH, ShHT, IHT kabi yetakchi xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik faollashdi. Mamlakatimizning Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashiga a'zo bo'lishiga qaror qilindi.

O'zbekiston Prezidenti o'z so'zida yangi elchilar vakillik qilayotgan davlatlar bilan ko'p qirrali hamkorlikni yanada rivojlantirish istiqbollarga to'xtalib o'tdi. Afg'oniston bilan do'stlik va yaxshi qo'sh-nichilik munosabatlari kengayib, mustahkamlanib borayotgani katta mamnuniyat bilan qayd etildi.

Mamlakatlarimiz o'rtasida oliy darajadagi muloqot faollashgani tovar ayir-boshlash hajmini ko'paytirish, energetika, transport, logistika va kommunikatsiyalar, ta'lim sohalarda yirik loyihalarni amalga oshirishda ulkan salohiyatga ega bo'lgan o'zaro munosabatlarni izchil rivojlantirishga katta sur'at bag'ishladi.

Prezidentimiz 2018-yil oktabrda Hindistonga amalga oshirilgan davlat tashrifi va joriy yil yanvar oyida "Jo'shqin Gujarat — 2019" sammiti doirasida bo'lib

o'tgan oliy darajadagi muzokaralar natijasida yangi amaliy mazmun bilan boyigan O'zbekiston — Hindiston strategik sherikligi yuksak darajaga ko'tarilganini yuqori baholadi.

Bugungi kunda farmatsevtika, innovatsiya va axborot texnologiyalari, tadbirkorlikni rivojlantirish sohalarda qo'shma loyihalar muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda. Joriy o'quv yilidan boshlab mamlakatimizda Hindistonning yetakchi oliy ta'lim muassasalari — Amity va Sharda universitetlari filiallari o'z eshiklarini ochdi.

Davlatimiz rahbari O'zbekiston va Buyuk Britaniya o'rtasidagi hamkorlik turli darajalarda sezilarli faollashganini mamnuniyat bilan qayd etdi.

Neft-gaz va kimyo sanoati, geologiya-qidiruv, moliya, innovatsion texnologiyalar va sog'liqni saqlash sohalari bo'yicha erishilgan kelishuvlar hayotga tatbiq etilmoqda. Ta'lim sohasida, jumladan, poytaxtimiz va hududlarda Kembrij universiteti ishtirokida Prezident maktablarini tashkil etish bo'yicha hamkorlik yuksak baholandi.

O'zbekiston Yaponiya bilan strategik sheriklik munosabatlarini yanada mustahkamlash va kengaytirishga muhim ahamiyat qaratmoqda. Energetika, geologiya-qidiruv, avtomobil sanoati, transport, telekommunikatsiyalar, infratuzilmani modernizatsiya qilish, fan, ta'lim, turizm va boshqa sohalarda Yaponiya kompaniya va banklari bilan kooperatsiya sur'ati ortib borayotgani ta'kidlandi.

Joriy yil dekabr oyida Yaponiyada bo'lib o'tadigan oliy darajadagi uchrashuv va muzokaralar keng ko'lamli o'zaro manfaatli hamkorlikni sifat jihatidan yangi darajaga olib chiqishga xizmat qilishiga ishonch bildirildi.

Davlatimiz rahbari 2018-yil oktabr oyida Fransiya amalga oshirilgan rasmiy tashrif ko'p qirrali O'zbekiston — Fransiya sherikligiga sifat jihatidan yangi mazmun bag'ishlaganini mamnuniyat bilan qayd etdi.

Geologiya-qidiruv, quyosh energetikasi, kommunal xo'jalik, turizm va boshqa tarmoqlarda istiqbolli loyihalarni amalga oshirish boshlandi. Madaniyat va san'at, fan va texnika, sog'liqni saqlash sohalaridagi hamkorlikni yanada kengaytirishdan manfaatdorlik bildirildi.

Marosim so'ngida Prezident Shavkat Mirziyoyev yangi tayinlangan elchilar faol diplomatik sa'y-harakatlari bilan davlatlarimiz o'rtasidagi do'stona munosabatlarni ko'p qirrali va o'zaro manfaatli hamkorlikni yanada mustahkamlashga munosib hissa qo'shishlariga ishonch bildirdi.

O'z navbatida, diplomatik missiyalar rahbarlari O'zbekiston Prezidentiga samimiy qabul uchun minnatdorlik bildirib, mamlakatlarimiz va xalqlarimiz farovonligi yo'lida davlatlararo munosabatlarni izchil va samarali rivojlantirishga bor kuch-g'ayratini safarbar qilishini ta'kidladilar.

O'ZA

Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari

Ma'naviyat masalasiga barcha daxldor

Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazida "Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari" g'oyasi asosida respublikamizda ma'naviyat ma'rifiy sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarishning dolzarb masalalari" mavzusida anjuman bo'lib o'tdi.

Unga turtli vazirlik va idoralar mas'ullari, adib va shoirlar, olimlar, ma'naviyat fidoyilari, o'qituvchilar taklif etildi.

Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi rahbari Minhojiddin Hojimatov, O'zbekiston fan arbobi, akademik Oqil Salimov, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Spikeri o'rinbosari, "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi markaziy kengashi raisi Alisher Qodirov, Yozuvchilar uyushmasi raisi Sirojiddin Sayyid, O'zbekiston Respublikasi san'at arbobi Ibrohim G'afurov va boshqalar Prezidentimiz tashabbusi bilan ilgari surilgan "Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari" degan ezgu g'oya o'z zalvori, ko'lamli ulkan amaliy sa'y-harakatga aylanib borayotganini ta'kidladi. Yangi taraqqiyot bosqichiga chiqqan O'zbekistonimizda xalq roziligi-ga erishish, insonga oliy qadriyat sifatida e'tibor qaratish tobora ko'proq ustuvorlik kasb etmoqda.

Mamlakatimizda ma'naviyat ma'rifiy ishlarni tizimli tashkil etish, bu boradagi chora-tadbirlar samaradorligini oshirish, xalqimiz ong-u tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirish, ma'naviyat-mafkuraviy immunitetini mustahkamlash, yuksak vatanparvarlik, istiqloлга sadoqat tuyg'usi bilan yashaydigan barkamol avlodni tarbiyalashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Davlatimiz rahbarining 2017-yil 28-iyuldagi "Ma'naviyat ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va

sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida"gi qarori asosida Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi qayta tashkil etildi. Ushbu qarorda belgilanganidek, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashiga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining raislik qilishi ma'naviyat va ma'rifat bugungi kunda jamiyat rivojlantirishida o'ta muhim masalalardan biri ekanining tasdiqi'dir.

O'tgan qisqa davrda mazkur sohani tubdan rivojlantirish maqsadida Prezidentimizning 2 ta qarori, 1 ta farmoni, 1 ta farmoyishi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1 ta qarori qabul qilindi.

Markaz tomonidan yuqoridagi qarorlar ijrosi yuzasidan bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Uning mamlakat miqyosida ma'naviyat ma'rifiy ishlarni yangi bosqichda tizimli va natijali tashkil etishi uchun bugungi kundagi dolzarb vazifalardan kelib chiqqan holda yangi bo'limlar, tashkiliy targ'ibot tizimlari, Multimedia studiyasi tashkil etildi. Shu bilan birga, mazkur tuzilma qoshida dolzarb mavzularda ma'naviyat ma'rifiy tadbirlarni tashkil qilish, mamlakatdagi yangi davr ruhiga hamohang boshlangan ulkan bunyodkorlik va yaratuvchanlik harakati, maqsadli islohotlarni keng xalq ommasiga yetkazish, jamiyatda hamjihatlik tuyg'usini mustahkamlash, bunda ziyolilar, ilm-fan, madaniyat va san'at, adabiyot namoyandalari, ma'naviyat fidoyilari salohiyatiga tayangan holda targ'ibot ishini tizimli olib boradigan "Ma'rifat" targ'ibotchilari jamiyati tuzilib, uning tashkiliy va moddiy asoslari yaratildi.

Shuningdek, Prezidentimiz qarori asosida ilg'or andozalarga tayangan holda ma'naviyat ma'rifiy targ'ibot tizimini takomillashtirish, milliy g'oya va mafkura borasida ilmiy-tadqiqot va uslubiy ta'minot ishlarini tashkil etishning mustahkam tizimini yaratish, zarur ilmiy-uslubiy adabiyotlar, risola va qo'llanmalar, taklif va tavsiyalar

ishlab chiqish, soha mutaxassislarini malakasini oshirish bo'yicha yangi samarali tizimni yo'lga qo'yish maqsadida "Ma'naviyat targ'ibotchisi" nodavlat ta'lim muassasasi ish boshlandi.

Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi faoliyati uchun barcha zarur vositalarga ega bo'lgan zamonaviy va ko'rkam bino ajratildi. Markazning moddiy ta'minoti, xodimlar ish haqi oshirilib, moddiy targ'ibatlantirildi. Targ'ibot tadbirlari uchun zamonaviy axborot texnologiyalari, targ'ibot avtobusi va boshqa zaruriy texnik vositalar bilan ta'minlandi. Bularning barchasi markaz faoliyatini bugungi yangi davr ruhi va talablari asosida yuksak darajada tashkil etish, yurtimizdagi ma'naviyat ma'rifiy ishlarni zamon talablaridan kelib chiqqan holda yangi bosqichga ko'tarish imkonini beradi.

Anjumanda ma'naviyat sohasida qabul qilingan qarorlarda belgilangan muhim yo'nalishlardan kelib chiqqan holda dolzarb masalalar muhokama etildi.

Ma'naviyat va ma'rifat yo'nalishidagi uzluksiz tizim asosida faoliyatni takomillashtirish, targ'ibot tadbirlari samaradorligini oshirish, sohaga oid dolzarb tadqiqot ishlarini tashkil etish, targ'ibot vositalari bo'lgan muhim qo'llanma va adabiyotlar yaratish, bu boradagi faoliyatni muvofiqlashtirish, mavjud ma'naviyat tahdidlarga qarshi targ'ibot tizimini kuchaytirish, yurtimizda kechayotgan shiddatli islohotlar mohiyatini aholiga yetkazish, hamyurtlarimizning Vatanimizda olib borilayotgan bunyodkorlik va yaratuvchanlik ishlariga nisbatan daxldorlik tuyg'usini kuchaytirish borasida muhim taklif va mulohazalar bildirildi, hamjihatlikda amalga oshiriladigan vazifalar belgilab olindi.

N.USMONOVA,
O'ZA muxbiri

Maktabgacha ta'lim

Baxtli bolalar maskani



(Davomi. Boshi 1-betda.)

Dastlab mehmonlar 5-"A" dahada barpo etilgan "Baxtli bolalik" nomli 44-maktabgacha ta'lim tashkilotining ichki va tashqi ko'rinishi bilan tanishdi.

— MTTmiz 510 o'rinni bo'lib, bundan tashqari, qisqa muddatli guruhlarda 120 nafar o'g'il-qizni qamrab olish quvvatiga ham ega, — deydi tashkilot rahbari Kamila Anvarova. — Hozir 13 ta to'liq kunlik va 2 ta qisqa muddatli guruhlar tashkil etildi. Maskanimizda 41 nafar oliy ma'lumotli pedagog, 18 nafar yordamchi xodim faoliyat yuritadi. MTTmiz barcha zamonaviy shart-sharoitlarga

ega. Turli ertak kitoblari, rasmi, bolalar ongini o'stiruvchi adabiyotlar, didaktik materiallar bilan boyitilgan shinamgina kutubxona, ikkita sportzal, lego markazlari va o'yin maydonchalari tashkil etildi.

Ovqatlanish tizimi autorsing usulida yo'lga qo'yilgan. Muassasamiz mebellari ekologik toza mahsulotlardan tayyorlangan. Shuningdek, stol-stullar, karovatlar bolaning xohish-istagiga ko'ra, joyini almash-

trish, xonaga vaqti-vaqti bilan o'zgartirishlar kiritishga moslashtirilgan. Har bir mashg'ulot xonasi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan ta'minlandi. Tashkilotimizda bolajonlarga "Ilk qadam" dasturi bo'yicha yangi innovatsion texnologiyalarga tayangan holda ta'lim-tarbiya beriladi.

"Bilimlar mamlakati" da

Kunning ikkinchi yarmida tuman-dagi yana bir yangi maktabgacha ta'lim tashkilotining ochilish marosimi bo'lib o'tdi.

42-MTTga "Bilimlar mamlakati" deb nom berildi. Tumanning Qumariq mavzesida qurilgan ushbu bog'cha 330 o'rinni bo'lib, qisqa muddatli guruhlar uchun 120 o'rin ham ajratilgan. Maskanda 28 nafar oliy ma'lumotli pedagog va 14 nafar yordamchi xodim faoliyat yuritadi.



Har ikki maktabgacha ta'lim tashkilotida ham ta'lim muhiti Janubiy Koreya modeli negizida loyihalashtirildi. Shu tariqa yirik javonlar o'rni-ga mobil modullar o'rnatilgan. Ular xonadagi holatni o'zgartirish va uni turli mashg'ulotlarga moslashtirish imkonini beradi. O'yin va o'quv qurollari bolalar qo'li yetadigan joyda joylashtirilgan bo'lib, o'yinlarning aksariyati mayda qo'l motorikasini rivojlantirish uchun mo'ljallangan. Mashg'ulot xonalari, yo'laklarda nutq o'stirish va yozish, bilimni rivojlantirish, ijod qilish, qurilish, konstruksiyalash va matematika, sujet o'yinlari, kutubxona kabi ko'plab rivojlantirish markazlari joylashgan. Bunday sharoitda bolalarning o'zi ko'ngliga yoqqan mashg'ulotni tanlash imkoniyatiga ega. Pedagog esa o'yin va o'qish uchun zarur materiallarni aniqlaydi va qiyinchilik yuzaga kelgan holatda bolalarga yordam beradi. Zero, maktabgacha ta'limdagi "Ilk qadam" dasturining birlamchi mazmuni ham shundan iborat.

— Tumanimizda yangi turarjoylarning qurilishi va aholi sonining ortishi natijasida MTTga katta ehtiyoj vujudga kelgandi, — deydi tuman maktabgacha ta'lim bo'limi boshlig'i Kamola Nosirova. — Ushbu ikki bog'chaning ishga tushirilishi natijasida 840 nafar bolani qamrab olishga muvaffaq bo'lamiz. Ya'ni, bu ko'rsatkich bilan tumanda bog'cha yoshidagi bolalarni MTTlarga qamrab olish hajmi 83 foizdan 89 foizga ko'tariladi. Bundan tashqari, kelgusi haftada ko'pqavatli turarjoylarning pastki qavatlarida yangicha ko'rinishda qurilgan yana 4 ta MTT ham foydalanishga topshiriladi.

Zirola MADATOVA,
"Ma'rifat" muxbiri

B.RIZOQULOV olgan suratlar.

1-oktabr — O'qituvchi va murabbiylar kuni

"Ustozlar – kasaba uyushmalari e'zozida"

Poytaxtimizdagi 328-maktabda O'zbekiston Kasaba uyushmalari federatsiyasi kengashi rayosatining qarori asosida tashkil etilgan "Ustozlar — kasaba uyushmalari e'zozida" respublika tanlovining Toshkent shahar bosqichi bo'lib o'tdi.

Xalq ta'limi tizimida kamida 20 yil, boshlang'ich kasaba uyushmasi qo'mitasi raisi sifatida esa kamida 10 yildan buyon muntazam faoliyat yuritib kelayotgan 31 nafar qo'mita raisining taqdim etgan ishlari va hujjatlari ishchi guruh a'zolari tomonidan belgilangan tartibda ko'rib chiqildi.

Ishtirokchilarning har biri bilan alohida suhbat o'tkazildi. Ularga tanlov doirasida savollar berilishi barobarida kasaba uyushmalarining mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotidagi ahamiyatini yanada oshirish borasidagi fikr-mulohazalari va takliflari bilan ham atrofficha tanishildi.

Suhbat jarayonida nomzodlarning pedagogik hamda kasaba uyushmalaridagi faoliyati aks ettirilgan hujjatlar va taqdimotlar haqqoniy, xolis, adolatli baholandi. Shu bilan birga, qo'mita raisining bilimiga, fikrlashiga, o'z sohasi va kasaba uyushmalari faoliyatini qay darajada bilishiga, topshirilgan vazifalarga qanday yondashuviga, tashabbuskorligi, izlanuvchanligi, tashkilotchilik, yetakchilik qobiliyatiga egaligiga, qo'l ostidagilar va

jamoadoshlarini qay darajada birlashtira olish xislatlariga ham ahamiyat qaratildi.

Bundan tashqari, ishtirokchilar bilan suhbat davomida ishchi guruh a'zolari ularga tegishli ko'rsatmalar, yo'l-yo'riq va maslahatlar berdi. Nomzodlarga pedagogik va boshlang'ich kasaba uyushmasi qo'mitasi raisi sifatidagi faoliyatida yana ham shijoat, g'ayrat bilan ishlashi kerakligi, kasaba uyushmalari faoliyati samaradorligini oshirish hamda bu orqali maktablarda yosh avlodni har tomonlama yetuk shaxs etib tarbiyalash uchun mehnat qilayotgan o'qituvchilarni ijtimoiy-iqtisodiy qo'llab-quvvatlash va ularning haq-huquqlarini himoya qilishi lozimligi ta'kidlandi.

— Tanlovning shahar bosqichiga yetib kelgan ishtirokchilar ishlari matbuot nashrlari, xususan, "Ma'rifat" hamda "Ishonch" gazetalarida chop etilishi rejalashtiril-

gan, — deydi O'zbekiston ta'lim, fan va madaniyat xodimlari kasaba uyushmasi respublika kengashining Toshkent shahri bo'yicha mas'ul tashkilotchisi, ishchi guruh a'zosi Abduxalil Rahmonov. — Tanlovda o'z faoliyatini haqqoniy ko'rsatib berolgan boshlang'ich tashkilotlar raislarining tajribalarini ommalashtirish maqsadida alohida raislik kengashi, Toshkent shahar kasaba uyushma tashkilotlari birlashma kengashi va Respublika kengashining Rayosati qarorlarini qabul qilib, bitta boshlang'ich tashkilot ishini hududiy boshlang'ich tashkilotlarga tayanch, namuna sifatida ko'rsatamiz. Bu hammamizga yana bir karra mas'uliyat yuklaydi.

Ishtirokchilar suhbat va ularning tanlovga taqdim etgan hujjati nizomiga ko'ra muayyan mezonlar asosida baholandi. Unga ko'ra, Yunusobod tumanidagi 96-maktabning boshlang'ich kasaba uyushmasi qo'mitasi raisi Gulsara Saydaliyeva 1-, Shayxontohur tumanidagi 41-maktabning boshlang'ich kasaba uyushmasi qo'mitasi raisi Umida Nurmatova 2-, Sergeli tumanidagi 47-maktabning boshlang'ich kasaba uyushmasi qo'mitasi raisi Sayyora Ergasheva 3-o'rinni egalladi va tanlovning respublika bosqichida ishtirok etish huquqiga ega bo'ldi.

G'oliblar tashkilotchilarning maxsus diplom, faxriy yorliq va esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi.

Dilrux ISOMIDDINOVA,
O'zJOKU talabasi



O'zbekistonda saylov kampaniyasi boshlandi

O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi 2019-yil 20-sentabrdan mamlakatda saylov kampaniyasi boshlanganini e'lon qildi.

O'zbekiston muhim siyosiy jarayon — Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va mahalliy Kengashlarga bo'lib o'tadigan saylov arafasida.

Markaziy saylov komissiyasining Xalqaro matbuot markazida bo'lib o'tgan majlisi saylov kampaniyasi bilan bog'liq tashkiliy ishlarga bag'ishlandi.

Markaziy saylov komissiyasi raisi M.Abdusalomov saylovlar mamlakatda amalga oshirilayotgan demokratik islohotlar, istiqbol uchun belgilab olinadigan strategik taraqqiyotning dasturiy vazifalarini amalga oshirishda muhim ahamiyatga ega ekanini ta'kidladi.

Markaziy saylov komissiyasi 2019-yil 22-dekabrni — O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatlari va mahalliy Kengashlar deputatlari saylovi kuni, deb belgiladi. Saylov kampaniyasi 20-sentabrdan boshlangani e'lon qilindi.

Majlisda, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatlari va mahalliy Kengash-

lar deputatlari saylovini o'tkazish bo'yicha asosiy tadbirlar dasturi tasdiqlandi.

Tadbirda taraqqiyotning yangi, demokratik bosqichiga qadam qo'rgan O'zbekistonda yangi parlament va yangi mahalliy Kengashlarni saylash uchun yangi gacha ruhdagi saylov kampaniyasi boshlanayotgani alohida ta'kidlandi.

Bo'lajak saylovlar mamlakatimizni rivojlantirishning beshta muhim ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida o'z ifodasini topgan ilg'or demokratik g'oyalarning amaldagi yorqin ifodasi bo'ladi. Jamiyatimiz hayotidan ko'ppartiyaviylik, siyosiy pluralizm, fikrlar xilma-xilligi, ochiqlik va oshkorlik, bag'rikenglik tamoyillari tobora keng va mustahkam o'rin olmoqda.

Bu yil mamlakat parlamenti va xalq deputatlari mahalliy Kengashlariga saylovlar ilk bor yangi Saylov kodeksi asosida o'tadi. Saylovda birinchi marta beshta siyosiy partiya — "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi, Xalq demokratik partiyasi, Tadbirkorlar va ishbilarmonlar

harakati — O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi, "Adolat" sotsial-demokratik partiyasi va O'zbekiston Ekologik partiyasi o'z nomzodlarini ilgari suradi.

Saylov kodeksiga binoan endilikda siyosiy partiyalar Qonunchilik palatasiga bo'lajak saylovda 135 emas, balki to'liq 150 saylov okrugidan nomzod ko'rsatish huquqiga ega bo'ldi. O'zbekiston Ekologik harakatiga berilgan kvota chiqarib tashlangani partiyalararo raqobatni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Saylovda 20 milliondan ortiq saylovchi, shulardan ikki milliondan ziyod yoshlar ilk bor ovoz beradi.


Majlis nihoyasida Markaziy saylov komissiyasi raisi, siyosiy partiyalar rahbarlari Xalqaro matbuot markazining maxsus bezatilgan zaliga taklif etildi. Ular shaffof tugmachalarni bosib, saylov kampaniyasiga tantanali ravishda start berdi. Ulkan ekranda "2019-yil, 22-dekabr. "Yangi O'zbekiston. Yangi saylovlar!" tasviri paydo bo'ldi.

Xalqaro matbuot markazida saylovchilarga tezkor axborot berish markazi (Call-center) faoliyati yo'lga qo'yiladi. Markazning hududlarda ham bo'linmalari ish boshlagan.

N.ABDURAIMOVA,
O'ZA muxbiri

Adabiyot ostonasiga ilk qadam

Yosh iqtidor egalarini qo'llab-quvvatlash, ularning ijodini rag'batlantirish maqsadida har yili respublikamizning turli hududlarida yashab ijod qilayotgan yoshlarning ijod namunalari O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi va "Ijod" jamoat fondi tomonidan "Birinchi kitobim" loyihasida chop etib kelinmoqda. Ushbu loyihada qatnashib, kitobi chop etilishini istayotgan ijodkorlar soni kundan kun ortib bormoqda. Bu yil ham loyiha doirasida 22 nafar ijodkorning ilk kitobi lotin va kirill alifbosida, har biri 10 ming nusxadan chop etildi.



O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi binosida mazkur to'plamlarning taqdimot marosimi bo'lib o'tdi. Unda taniqli shoir va yozuvchilar, publitsistlar, adabiyotshunos olimlar, dramaturg hamda tarjimonlar ishtirok etdi.

Bo'lajak pedagogman

Bolaligimdan oq mohir pedagog bo'lishni va yurtga nafi teguvchi insonlar yetishib chiqishiga hissa qo'shishni maqsad qilganman. Albatta, buning ortida mashaqqatli mehnat borligini bilardim. Hayotda inson qo'qiladi, yiqiladi, o'rindan turib tinmay mehnat qiladi va, albatta, buning natijasini ko'radi. Muhimi, qo'qilganda o'rindan tura olish, berilgan sinovlar oldida taslim bo'lmaslikdir.

Insonning umri davomidagi eng muhim qarorlaridan biri — bu kasb tanlovi, albatta. Maqsadim sari tinimsiz izlanib, o'qishdan tolmay harakat qildim. Uzoq va mashaqqatli tayyorgarliklardan so'ng, ustozlarim va ota-onam ishonchini oqladim. Oliy o'quv yurti talabasi bo'ldim. Endi talabaman, deb o'qishni sustlashtirmayman. Qancha yangi bilimlar olsam, yana ham o'qishga ishtiyoqim

ortib bormoqda. Tajribali pedagog bo'lish uchun o'z ustidam tinmay mehnat qilmoqdaman.

O'qituvchilik kasbi eng ulug', sharafligi va o'z navbatida, mashaqqatli kasbdur. Hozirgi zamon pedagoglarga qo'yilgan talablar nihoyatda mas'uliyatlidir. Mohir pedagog, avvalo, kasbini sevishi, o'z ustida ishlashi, innovatsion texnologiyalardan foydalanishi,

Kitoblari nashr etilgan yoshlarning qo'lyozmalari Respublika yosh ijodkorlarining Zomin va "Iste'dod maktabi" seminarlarida nashrga tavsiya etilgan. Tadbirni ochib berish uchun so'zga chiqqan Yozuvchilar uyushmasi raisi Sirojiddin Sayyid bu haqida alohida gapirib o'tdi. Ijodkorlarni qutlar ekan, nashrga tayyor bo'lguncha ijodiy ishlar qaysi bosqichlardan o'tgani, saralash jarayonlarida nimalarga e'tibor qaratilganiga batafsil to'xtaldi.

Nazm, nasr, dramaturgiya, tarjima, publitsistika hamda bolalar adabiyoti yo'nalishida qatnashchilarning ishlarini ko'rib chiqqan muxassislar o'z taassurotlarini o'rtoqlashishdi.

Birinchi kitob — adabiyot ostonasiga tashlangan ilk qadam. Kitobi chiqqan yoshlarimizda mas'uliyat ikki hissa oshishi kerak. Ushbu yo'nalishda ishtirok etgan qizlarimizdan Vazira Ibrohimova hamda Zulxumor Orifjonovanning yozganlari menga juda mazmur bo'ldi, — deydi "Jahon adabiyoti" jurnali bosh muharriri Ahmadjon Meliboyev.

Shuningdek, tadbirda Olimjon Suyarov, Nozima Habibullayeva, Bashorat Otajonova, Husan Maqsud kabi yoshlarning ijodi ustozlar tomonidan e'tirof etildi.

2017-yili Zomin seminarida ishtirok etgan edim. Seminar-da ustoz adiblardan saboq olib, tengdosh ijodkorlar bilan tanishdim, — deydi "Bolalar adabiyoti" yo'nalishi ishtirokchisi Mohidil Abdullayeva. — Seminaridan o'rganganlarim bisyor. "Birinchi kitobim" loyihasida "Raqqos yaproqlar" nomli ilk to'plamim nashr etilishi esa men uchun haqiqiy sovg'a bo'ldi.

Shuningdek, tadbirda Naima Anvarova hamda Bayram Ayturov ishtirokchilar nomidan ustozlar, Yozuvchilar uyushmasi hamda "Ijod" fondi xodimlariga o'z minnatdorligini bildirdi.

Charos YOQUBOVA

kamida bitta chet tilini bilishi va kreativ bo'lishi zarur. Bu sifatlarni o'zida mujassam eta olgan talabalar faxrli kasb egasi bo'ldi.

Aslo chekinmang, doim olg'a boring, bo'lajak talabalar! Eng avvalo, psixologik yondashang, ya'ni ongningizdan zararli, maqsadningizga xalal beruvchi yomon o'yarlarni chiqarib tashlang. Har kuni o'z-o'zingizga "Men — bo'lajak talabaman, men mohir muxassisman", degan fikrni singdiring. Tinmay mehnat qiling, izlaning. Ba'zida uyqusiz turlarni o'tkazishingiz mumkin, ammo bu sizni muvaffaqiyatga eltadi. Ota-onangiz, ustozlaringiz faxrlanishini tasavvur qiling. Bu sizga katta motivatsiya beradi.

Mashaqqatli mehnat ortidan yorug' kunlar keladi!

Hanifabonu ABDULBORIYEVA,
Chirchiq davlat pedagogika
instituti talabasi

O'qituvchi

nimani

o'ylaydi?



✓ O'quvchilik yillarimiz us-
tozdan a'lo baho olish mushkul
edi. Sinfda a'lochilar sanoqli
bo'lardi. Keyinchalik a'lochilar va
o'rtacha o'qiganlarning aksariyati
oliy o'quv yurtiga o'z bilimi bilan
kirdi. Chunki baholar haqqoniy edi.
Hozir hamma a'lochi. Kimo'zarga
"5" yig'iladi. Arzon bahoning
sho'rvasi tatimaydi. Bahoning qad-
rini oshiraylik, ustozlar!

Abdusattor BOTIROV

✓ O'quvchining diqqatini
jalb qilish uchun qattiq ga-
pirmasdan, kerakli narsa yoki
voqeani muloyimlik bilan tushun-
tirish kerak. Hech ham gapga kir-
maydigan o'quvchingizga "Sendan
kutmagam edim, meni juda ranjit-
ding", deb ko'ring.

Maxfirat ABDULLAYEVA

✓ Sirdan qaraganda ham-
masi zo'r. Oyliklar oshdi,
hurmat-e'tibor kuchaydi.
Ammo maktab ichiga kirganda hali
muammolar bisyor ekanini bilish
mumkin. Masalan, o'qituvchi yuri-
tadigan hujjatlar soni faqat so'zda
kamaytirilgan. Hozir ham ilgari-
gidek qog'ozga ko'milib qolgan-
miz. Boshqa muammolar ham yo'q
emas. Qachongacha o'qituvchilar
faqat chiroyli nutqlarda, she'r va
ko'rsatuvlarda balandparvoz gaplar
bilan tilga olinadi?

Malika SODIQOVA

✓ Ko'pchilik ota-onalar far-
zanding Prezident maktabida
o'qishini ohlaydi. Ammo
u yerga qog'ozda faqat "5" o'qi-
ganlar topshiradi. Ota-onalar esa
bolaning qobiliyati bilan qiziq-
may, faqat "5" olishini o'ylaydi.
Hamma bolada turlicha qobiliyat
bor. Mayli, farzandlarimiz nufuzli
dargohlarda o'qimasin, mayli
oddiy hunarmand, chorvador yoki
qo'ligul usta bo'lsin. Faqat xalq-
qimizga nafi tegsin.

Ravshan MATMUSAYEV

✓ "Mehr bilan boqsang —
mehr qaytadi, qahr bilan boq-
sang — qahr" degan naql
bor. O'quvchiga qahr bilan boqsak,
30—40 nafar bola bizga shuni qay-
taradi. O'qituvchida qattiqqo'llik
bilan mehribonlik doim uyg'un
bo'lishi shart.

Nurxon BEKNIYOZOV

Mushtariy muhokamasi

"Kutubxonachi maktabning "yuragi" bo'lsin"

Bugungi kunda kitobxonlik va mutolaa masalalari davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Har bir ta'lim maskanida kitobxonlikka alohida e'tibor qaratilmoqda. Hozir respublikamizdagi maktab kutubxonalarining ahvoli ancha yaxshilangan, javonlar turli adabiyotlar bilan to'lgan. Endigi vazifalar o'qituvchilarning zimmasida. O'quvchilarni kitobga oshno etish, ular qalbida mutolaa havas uyg'otishda, albatta, ustozlarning o'ri katta. Bu borada hududlarda qanday ishlar olib borilmoqda, maktab kutubxonalari talabga javob beradimi? Shu va boshqa savollarga hozirjavob pedagoglarning mulohazalari tayyor. "Mushtariy muhokamasi" ruknining navbatdagi mavzusi shu haqida.

Gavharshod QURBONOVA, Oqdaryo tumanidagi 11-maktabning boshlang'ich sinf o'qituvchisi:

— Kitob mutolaasi har bir zamon va makonda muhim hisoblangan. Ayniqsa, hozirgi davrda. O'tgan yili hududimizdagi ziyolilar hamda fermerlar tomonidan maktabimiz kutubxonasiga 100 dan ziyod badiiy kitob sovg'a sifatida berildi. Kitob topshirish marosimi tantanali suratda bo'lib o'tdi. Unda qatnashgan o'quvchilarning aksariyatida kitobga qiziqish uyg'ondi. Hozir kitobxonlarimiz juda ko'p. Ular o'zlariga qiziq bo'lgan badiiy kitoblarni o'qiydilar. Men ham yangi o'quv yilidan o'zim rahbarlik qilayotgan 2-"D" sinfida kutubxona burchagi tashkil etdim. Ota-onalar homiyligida kitoblarni soni 30 tadan oshdi. Darsdan keyin o'zbek xalq ertaklaridan bittadan o'qib, bolajonlar bilan ijobiy va salbiy qahramonlarni muhokama qilamiz. O'quvchilarni kelasi safar qaysi ertakni o'qiydilar, deb qiziqishadi.

Dildora BEKMURODOVA, Termiz tumanidagi 22-maktabning ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi:

— Nazarimda, uyida kitob o'qib o'tirgan yoki gazeta varaqlayotgan ota-ona, bobo-buvilar, hech bo'lmasa, aka-yu opalarini ko'rib o'sayotgan bolada kitobga mehr uyg'otish imkoniyati ko'proq. Qolaversa, kitobxonlik, gazetxonlikda, avvalambor, ustozning o'zi o'nak bo'lishi kerak. Maktab kutubxonachisi esa kuni qog'ozga ko'milib o'tadigan tund qiyofadagi, shunchaki kelib-ketar "aka" yoki "opa" emas, yaxshi ma'noda, haqiqiy kitob muxlisi bo'lishi, buni atrofidagi bolalarga ham "yonib turgan" ko'zlarini-yu so'zlari bilan yuqtira olishi kerak. Qisqasi, kutubxonachi maktabning "yuragi" bo'lsin. Maktab kutubxonalariga kitob sovg'a qilgan va qilishda davom etayotgan insonlar chuqur hurmatga loyiqdir. Ammo hamma gap bu asarlarning o'qilishida. Kitob o'qiyotgan bolakaylar-u yigit-qizlar, ustozlar bundan-da ortiq ehtiromga arziydilar. Taassufki, umrida bir bora badiiy asar o'qimagan, o'qisa-da, uqmagani insonlarga rahmim keladi.

Ruxshona NORQULOVA, Olmazor tumanidagi 278-maktabning matematika fani o'qituvchisi:

— Maktabda ming sharoit yaxshi bo'lsin, uyda ijodiy muhit bo'lmasa,

hammasi bekor. Maktab davrimni hali-hanuz zavq bilan eslayman. Ziyoli oilada ulg'ayganim bois, ayniqsa, ta'lim payti oilaviy badiiy kitob o'qirdik. O'qigan badiiy asarlarimiz yuzasidan birgalikda bahslashardik. Uyimizning yonida kutubxona bo'lardi. Opam va akam kunora badiiy kitob olib o'qirdi. Adabiyotga muhabbatimiz cheksiz edi o'sha paytlarda. Kitob o'qishning foydasi juda ham ko'p. Misol uchun, o'quvchilarning xat-savodi yo'q deyishadi, kechirasiz-u, ta'lim sohasida ishlayotganlarning savodini ko'rsangiz, nafratlanib ketasiz ba'zan. Kitob nafaqat dunyoqarashni kengaytiradi, ma'naviyatni o'stiradi, hayotni to'g'ri anglab yetishga o'rgatadi. Ota-ona farzandini ma'naviyati uchun o'qituvchilardan-da ko'proq mas'ul! Shu o'rinda ota-onamga va o'qituvchilarga rahmat aytaman. O'zim matematik bo'lsam-da, adabiyotga mehr-u muhabbatim bo'lakcha!

Madina BAXSHILLOYEVA, Romitan tumanidagi 23-IDUM o'qituvchisi:

— Maktabimiz kutubxonasi uchun yangi o'quv yilida kompyuter jihozlari keltirildi. Kutubxonamizda ilmiy va badiiy asarlar talaygina. Endi o'qituvchi va o'quvchilar elektron kitoblar, qo'llanmalar va multimedialardan bemalol foydalanishi mumkin. Maktabimiz ona tili faniga ixtisoslashgan bo'lib, hozirgi kunda qariyb 500 nafar o'quvchi tahsil oladi. "Qadrdon maktabimga kitob sovg'a qilaman" aksiyasi ostida 300 ga yaqin badiiy adabiyot sovg'a qilindi. Bu xayrli ishni fan o'qituvchilarning boshlab berdi. Keyin o'quvchilar, ularning ota-onalari davom ettirdi. Yangi o'quv yilini ham kitob yarmakalari bilan boshlab yubordik. Kutubxonada kitoblar soni muhim, ammo sifatli adabiyotlar ro'yxati tuzilib, ulardan qisqa-qisqa iqtiboslar berilsa, o'quvchilarning qiziqishi ortadi. Kutubxonachi qizimiz targ'ibotchi kitobxon o'quvchilarning bilan to'garak tashkil etgan, har hafta mashg'ulotlar olib borishadi. To'garak a'zolari turli tanlovlar asosida o'quvchilarni badiiy asarlarni o'qishga yanada qiziqtiradilar. Faol o'quvchilarni bilan hamkorlikda sevimli nashrimizning "Ma'rifat" kitobxonini tanlovda muntazam qatnashib kelyapmiz.

Zevarshoh HAMROYEVA, G'ijduvon tumanidagi 4-maktabning ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi:

— Kutubxonamiz keng, shinam, bir

vaqtning o'zida 20 dan ortiq kitobxon o'tirib kitob o'qishi mumkin. Maktabimizda 2 ta an'ana yo'lga qo'yilgan. Har oy bitta sinfga yoshiga qarab bitta badiiy kitob o'qish tavsiya etiladi. Oy oxiridagi tarbiyaviy soat o'sha kitob muhokamasi-ga bag'ishlanadi. Shunaqa zo'r dars bo'ladi, asti qo'yavering. Yana biri adabiyot darsida o'tiladigan bitta asar to'liq onalar bilan birga o'qiladi. Chorak oxirida esa ushbu asar yuzasidan onalar muhokamasi bo'ladi. Hatto adabiyot o'qituvchisi bo'lmagan boshqa ustozlar qiziqib, maroq bilan kuzatadi. Odatda onalar bilan O'ltir Hoshimovning "Dunyoning ishlari", Oybekning "Bolalik", G'afur G'ulomning "Shum bola" qissalarini ko'p o'qiydilar. O'quvchilarning orasida ham kitobxonlar bisyor. O'tgan o'quv yilida homiylik tomonidan juda ko'p kitob sovg'a qilindi. Biz bundan judayam minnatdormiz. Avvallari darslikda berilgan asarlardan bitta topilardi yoki yo'q. Endi esa u kitoblardan 2-3 tadan bor. Yuqori sinf o'quvchilari adabiyot darsligidagi aksariyat asarlarni to'liq o'qigan.

Shahnoza BERDIQULOVA, Oqqo'rg'on tumanidagi 38-maktabning musiqa fani o'qituvchisi:

— Dastavval kutubxonachining o'zi ma'naviy boy bo'lishi kerak. Kitoblarning mazmunidan xabardor bo'lsa, o'quvchining yoshiga moslab kitob tavsiya qila oladi. Baxshilar ham avval dostonlardan parcha kuylab, keyin tinglovchiga yuzlanadi-ku: "Qay biridan aytayin?" deb. Kutubxonachi ham har bir kitob haqida qisqacha ma'lumot bersa, o'quvchi qolgan ma'lumotni bilishga qiziqadi. Kitobni tamomlagach, o'quvchi bilan asar haqida fikrlasha, nur ustiga nur bo'ladi.

Gulchehra ASHUROVA:

— Yoshligimizda kitob o'qishni yoki kutubxonaga a'zo bo'lishni kimdir targ'ib qilganini yoki maktab kutubxonasiga bugungidek minglab kitoblar sovg'a qilganini eslay olmaymiz. Hamma o'zidan bilib kutubxonaga borib, kitob mutolaa qilardi. O'shanda kutubxonaga boriladigan kuni hayajon bilan kutar edim. Kutubxonadagi ajib bir hid, o'zgacha muhit, sokinlik, kutubxonachining yoqimli muomalasi hamon yodimda... Bugun maktab kutubxonalaridagi kitob javonlari kitob ko'pligidan sinay deydi. Ammo kuni internetdan turli ma'lumotlar olish, ijtimoiy tarmoqlarda do'stlari bilan suhbatlashishdan ortmaydigan o'quvchilarning kitob o'qishini, deyinshning o'zi kamlik qiladi, hatto ular kutubxonaga oyda bir ham kirmaydi.

Shahnoza AVAZOVA, Pitnak shahridagi 29-maktab o'qituvchisi:

— Maktab insonning shaxs bo'lib shakllanishida asosiy poydevor, tayanch vazifasini o'taydi. Intiluvchan, kitobni o'zi mutolaa qilib yaxshi targ'ibot olib boruvchi kutubxonachi, mahoratli, dunyoqarashi keng o'qituvchi bu imoratning nurab ketmasligini ta'minlaydi. Xalqimiz bejiz "Kitobsiz kalla — giyohsiz dala" demagan. Ko'pchilik o'quvchi-

lar ko'rgazmalarga qiziqadi hamda o'zi ham shunday rasmlar chizishni yaxshi ko'radi. O'quvchilarning kitob o'qishga qiziqishini oshirishda kutubxonachi o'sha o'qigan asarlari, ertak, hikoyalardagi qahramonlar rasmini chizishni topshirib tanlovlar ("Men sevgan qahramon" va boshqa) e'lon qilsa va o'quvchilarni rag'batlantirib borsa, yaxshi natija beradi, deb o'ylayman. Bu orqali o'quvchilarning o'qigan ertak, hikoyalari xotirasida muhrlanib qoladi.

Hafiza RASHIDOVA:

— 1985-86-yillarda oilamiz bilan Moskva shahrida yashadik (turmush o'rtog'im harbiy bo'lgan). Ko'pqavatli uylar oldidagi o'rindiqlarda, metrolarda, avtobuslarda o'tirib gazeta va jurnal o'qib borayotgan yoki o'qish bilan shug'ullanib, har bir daqiqadan unumli foydalanayotgan yosh-u keksani ko'rib hayratga tushganman. Ayniqsa, yoshi ulug' onaxon va o'taxonlarning "Pravda", "Известия", "Аргументы и факты" gazetalarini o'qib, bir-birlari bilan tahlil qilib o'tirganini ko'rib, bu xalq nechog'lik mutolaa sevadigan ekanligiga amin bo'ldim.

Mahmuda VALIYEVA, na-faqadagi pedagog:

— Kutubxona — nurxon, deyдилar. Maktablarda kitobni sevuvchi, qadrluvchi o'quvchilar ko'p. Kutubxonalarda ham kitoblar yetarli. Faqat ikkita muammoni aytaman. Birinchisi, aksariyat kutubxonachilarning o'quv zali juda tor. Ko'p maktablarda bo'lganman. Deyarli barchasida bir xil holat: sinfxona kataligidagi kutubxonada 4-5 ta stol yoki parta, 8—10 ta stol bilan kifoyalangan. 1500—2000 nafar o'quvchi o'qiydigan maktablar uchun, albatta, bu achinarli. Kutubxonalarda 50—60 o'quvchiga mo'ljallangan alohida o'qish zali bo'lsa, maqsadga muvofiq. Ikkinchi muammo, maktab kutubxonalarida kutubxonachilar 1 yoki 2 nafar bo'ladi. O'quvchi soniga qarab, bu shartni ko'paytirish kerak. Birgina kutubxonachi minglab o'quvchilarga kitob tarqatadi, ota-onalar bilan shartnoma tuzadi, ijara pullarini banka topshiradi. U qachon o'quvchilar bilan ishlaydi? Qachon o'zi ham kitob o'qiydi? Qolaversa, yozuvchilar bilan uchrashuvlar, yangi asarlar taqdimoti, gazetalar sharhi, turli tanlovlar, adabiy-badiiy kechalar o'tkazish ishlariga ham kutubxonachi mas'ul etilishini taqtil qilgan bo'lardim.

Hoshim HAKIMOV, Kitob tumanidagi 79-maktabning rus tili o'qituvchisi:

— Hozir kutubxonalarining moddiy-texnik bazasi ancha yaxshilangan. Javonlar kitoblar bilan limmo-lim. Ammo qishloq maktablarida ahvol o'sha o'sha. Kutubxonalarida uzog'i bilan 8—10 nafar o'quvchi mutolaa qilishi mumkin. Shunday sharoitlarda ham kitobga qiziqishi yuqori bo'lgan o'quvchilar mutolaa o'txatani yo'q. Chunki ular vaqtini havodek sarflayotgan internet, zamonaviy telefon, kompyuterlar yo'q. Shahar maktablaridagi o'quvchilar biror ma'lumot kerak bo'lsa, darrov internet titkilashadi. So'zimiz isboti sifatida aytishim mumkin, yaqinda respublika maktablarining umumiy reytingi e'lon qilindi. Chekka tuman va qishloqlardagi maktablar yuqori natijalarni ko'rsatdi.

Diqqat, yangi rukn: TARIXDAGI BUGUN

Sentabr soʻngidagi muhim voqealar

(Davomi. Boshi 1-betda.)

23-SENTABR — BURHONIDDIN MARGʻINONIY TAVALLUD TOPGAN KUN VOQEALARI

1123-yil — buyuk faqih imom Burhoniddin Margʻinoniy dunyoga keldi (vafoti — 1197-yil). U oliy diniy unvon — shayxulislom darajasiga erishgan. 1178-yilda «Kitob al-Hidoyah» asarini yaratdi. Bu kitob fiqh ilmi boʻyicha eng aniq, izchil, mukammal asar hisoblanadi. Shu sababli alloma nafaqat ulamolalar, balki oddiy xalq orasida ham «hidoyat yoʻlining sarboni» deya katta hurmat-eʼtibor topdi.

1860-yil — Buxoro amiri, mangʻitlar sulolasidan boʻlgan hukmdor Nasrulloxonning oʻgʻli Muzaffar (yashagan yillari: 1819—1885) taxtiga oʻtirdi (hukmronligi: 1860—1885).

1866-yil — Rossiya imperiyasi polkovnigi Voronov-Dashkov boshchiligidagi harbiy qism Buxoro amirligi hududiga bostirib kirdi.

1896-yil — seleksioner olim, Oʻzbekiston Fanlar akademiyasi akademigi Sergey Kanash tavallud topdi (vafoti — 1975-yil). U gʻoʻzaning bir necha serhosli yangi navlarini yaratdi.

1908-yil — zoolog, Oʻzbekiston Fanlar akademiyasi muxbir aʼzosi, Oʻzbekistonda xizmat koʻrsatgan fan va texnika arbobi Ahror Toʻlaganov tavallud topdi (vafoti — 1990-yil). U 1957—1963-yillarda Samarqand davlat universiteti rektori boʻlgan.

1913-yil — Xivada kasalxonaga ishga tushirildi. Shu munosabat bilan Xiva xoni Asfandiyorxon (hukmronligi: 1910—1918) Turkiston general-gubernatori nomiga quyidagi telegrammani joʻnatdi: «Siz hazratil oliylariga shuni maʼlum qilamanki, men tomondan Xivada martabasi oliy taxt vorisi, buyuk knyaz Aleksey Nikolayevich nomiga qurilgan kasalxonaga shu yilning 23-sentabrida, general-mayor S.Seyl, ulamolalar va amaldorlar ishtirokida, meditsina xizmati koʻrsatish uchun ochildi. Xivadagi kasalxonaning ochilish marosimida qatnashgan tarixchi Bayoniy (1858—1923) shunday yozgandi: «Ushbu yil zulqaʼda oyida dorusshifo, yaʼni duxtruxonaning binosi itimogʻa yetdi (yakunlandi). Xon hazratlari onda yaxshi toʻy berib, tamomi ulamo va tamomi toʻralar, beklar va tamom-u amaldor-u oqsoqollar va tamomi elni daʼvat etdilar va Rusiya duxtrularidan ikki duxturni talab etib kelturmish erdilar».

1921-yil — Butun Buxoro xalq vakillarining 18-sentabrda boshlangan ikkinchi qurultoyi nihoyasiga yetdi. Unda Buxoro Xalq Sovet Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilindi.

1932-yil — hujjatli kino rejissiyori, Oʻzbekistonda xizmat koʻrsatgan sanʼat arbobi Soli Davlatov dunyoga keldi. U «Beruniy», «Aljabr — algebra» kabi bir qancha filmlarni suratga oldi. Uning «Surxon tongi» filmi 1985-yili Riga kinofestivalida bosh sovrinni qoʻlga kiritdi.

1992-yil — Toshkentda Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti tashkil etildi.

1997-yil — Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov Rossiya Federatsiyasi Davlat dumasi raisi Gennadiy Seleznyovni qabul qildi.

24-SENTABR — OLIM XOʻJAYEV TUGʻILGAN KUN HODISALARI

1910-yil — Oʻzbekiston xalq artisti Olim Xoʻjayev dunyoga keldi (vafoti — 1977-yil). U 2002-yilda (vafotidan soʻng) «Buyuk xizmatlari uchun ordeni» bilan mukofotlangan.

1938-yil — Buxorodagi jadidchilik harakati namoyandasi Mukammil Burhonov otib tashlandi (tavalludi — 1875-yil). U 1920—1924-yillarda Buxoro Xalq Sovet Respublikasi (BXR) Adliya noziri, BXRning RSFSR hukumati huzuridagi muxtor vakili lavozimlarida ishlagan.

1953-yil — Gʻijduvon kulolchilik maktabining yettinchi avlod vakili, Oʻzbekiston xalq ustasi Alisher Nazrullayev tavallud topdi.

1994-yil — Xorazmda davlat arbobi va shoir Muhammad Rahimxon Feruz tavalludining 150 yilligi tantanalari boshlandi.

1998-yil — Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi «Jaloliddin Manguberdning 800 yillik yubileyini nishonlash toʻgʻrisida» qaror qabul qildi.

25-SENTABR — ABDURAUUF FITRATGA DAVLAT MUKOFOTI BERILGAN KUNDA SODIR BOʻLGAN VOQEALAR

1911-yil — adabiyotshunos, Oʻzbekiston Fanlar akademiyasi muxbir aʼzosi, Oʻzbekistonda xizmat koʻrsatgan fan arbobi Yusuf Sultonov tavallud topdi (vafoti — 1991-yil). U 1970-yilda Beruniy nomidagi davlat mukofoti laureati boʻlgan.

1922-yil — RKP(b) Markaziy Qoʻmitasi Tashkiliy byurosining qarori bilan «qoʻpol xatolari uchun» Turkiston kommunistik partiyasi Markaziy Qoʻmitasi kotibi N.Toʻraqulov, Turkiston Avtonom Respublikasi Xalq Komissarlari Kengashi raisi Q. Otaboyev va TASSR Markaziy Ijroiya Qoʻmitasi raisi A. Rahimboyev egallab turgan lavozimlaridan ozod qilindi.

1932-yil — forishlik Oʻzbekiston Respublikasi xalq oʻqituvchisi Amakboy Kucharov dunyoga keldi.

1935-yil — arxeolog-tarixchi olim, Oʻzbekiston Fanlar akademiyasi akademigi Ahmadali Asqarov tavallud topdi.

1939-yil — Oʻzbekiston Respublikasi xalq oʻqituvchisi Tursunali Yunusov tugʻildi.

1942-yil — Oʻzbekiston xalq artisti Oʻrinboy Nuraliyev tavallud topdi.

1991-yil — Abdurauf Fitratga (vafotidan keyin) Alisher Navoiy nomidagi Oʻzbekiston Respublikasi davlat mukofoti berildi.

1995-yil — qiziqchi Muhiddin qiziq Darveshov vafot etdi (tavalludi — 1938-yil).

1997-yil — Komil Yashin taxallusi bilan ijod qilgan shoir, dramaturg, publitsist va jamoat arbobi, Oʻzbekiston xalq yozuvchisi, akademik Komil Nuʼmonov vafot etdi (tavalludi — 1909-yil).

1997-yil — Oʻzbekiston Respublikasi bilan Islandiya Respublikasi oʻrtasida diplomatik munosabatlar oʻrnatildi.

1998-yil — «Turkiston-Press» nodavlat axborot agentligi tashkil etildi.

2002-yil — Oʻzbekiston xalq hofizi Orifxon Hotamov vafot etdi (tavalludi — 1927-yil). U 1997-yilda «Doʻstlik» ordeni bilan mukofotlangan.

2004-yil — adabiyotshunos olim, Oʻzbekiston Respublikasi fan arbobi Begali Qosimov vafot etdi (tavalludi — 1942-yil).

26-SENTABR — IBN SINO BILAN UCHRASHGAN SOMONIY AMIR TAXTGA OʻTIRGAN KUN

976-yil — amiri Rashid nomini olgan, Somoniylar davlatining 976—997-yillardagi hukmdori Nuh ibn Mansur (963—997) mamlakat taxtiga oʻtirdi. Mashhur tabib Abu Ali ibn Sino 16 yoshida Nuh ibn Mansurni davolab, oʻsha davrda Sharqdagi eng boy kutubxonaga sanalagan Somoniylar davlatining kutubxonasida mutolaa qilish imkoniyatiga ega boʻlgan.

1875-yil — Namanganga kelgan Turkiston general-gubernatori Konstantin Petrovich fon Kaufmanga Andijon shahrida va unga yaqin boʻlgan joylarda Poʻlatxon va Abdurahmon oftobachi boshchiligidagi katta qoʻshin toʻplanganligi haqidagi xabar yetib bordi: «Andijonliklar shaharning oʻn ikkita katta koʻchasida turli narsalardan toʻsiqlar oʻrnatganlar. Andijon himoyasi uchun shaharlardan tashqari, qishloqlarning aholisi ham kelgan. Shahar himoyachilarining soni 60—70 ming kishidan iborat boʻlib, ularga Abdurahmon oftobachi boshchilik qilgan. Poʻlatxon esa 15 ming qirgʻiz bilan ruslarga orqa tarafdin zarba berish maqsadida shahar chekkasiga oʻmashgan».

1991-yil — Oʻzbekiston Respublikasining Milliy xavfsizlik xizmati tuzildi.

1991-yil — Toshkentda Jahon oʻzbeklari (turkistonliklar)ning xalqaro anjumani oʻtkazildi.

1992-yil — Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining loyihasi puxta ishlovlardan soʻng Konstitutsiyaviy komissiya qarori bilan umumxalq muhokamasi uchun matbuotda eʼlon qilindi.

27-SENTABR — USMON YUSUPOV BIRINCHI KOTIB BOʻLGAN KUN HODISALARI

1937-yil — davlat va siyosat arbobi Usmon Yusupov (1901—1966) Oʻzbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining birinchi kotibi boʻldi (1937—1950-yillarda).

1943-yil — Rauf Parfi taxallusi bilan ijod qilgan shoir va tarjimon, Oʻzbekiston xalq shoiri Tursunali Parfiyev tavallud topdi.

1944-yil — jizzaxlik Oʻzbekiston xalq oʻqituvchisi Ali Xidirov dunyoga keldi.

1963-yil — Oʻzbekiston xalq artisti Obid Jalilov vafot etdi (tavalludi — 1896-yil).

1996-yil — Oʻzbekiston Bolalar jamgʻarmasi roʻyxatidan oʻtkazildi.

1999-yil — Toshkentda Amerikaning «Motorola» kompaniyasi vakolatxonasi va radiostansiyalar ishlab chiqaradigan «Oʻzbekiston—Motorola—Telekom—Radio» qoʻshma korxonasining rasmiy ochilish marosimi boʻlib oʻtdi.

2004-yil — Madaniyat ishlari vazirligi va Davlat sport qoʻmitasi negizida Oʻzbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi tashkil etildi.

28-SENTABR — JOM JANGI NIHOYASIGA YETGAN KUNDA...

1375-yil — temuriylar saroyida xizmat qilgan tarixchi olim Fasih Havofiy tavallud topdi (vafoti — taxminan 1443-yil). U 1433—1442-yillarda «Fasihning (tarixlar) majmuasi» tarixiy asarini yozdi va uni Amir Temurning oʻgʻli Shohruxga taqdim etdi. Bu asar «Tarixiy sanalar yigʻindisi» deb ham nomlanadi.

1528-yil — shayboniy sultonlar bilan Eron shohi Tahmasp I (hukmronligi: 1524—1576) qoʻshinlari oʻrtasida Jom viloyatining Zurobod mavzesida roʻy bergan Jom jangi nihoyasiga yetdi. Unda shayboniylar magʻlubiyatga uchradi.

1873-yil — Rossiya—Buxoro shartnomasi imzolandi. Unda Buxoro amirligi Rossiyaning protektorati (tobesi; homiyiligi ostidagi hudud) deb eʼlon qilindi.

1926-yil — Samarqand viloyatida Kattaqoʻrgʻon, Namangan viloyatida Pop tumanlari tashkil etildi.

1929-yil — VKP(b) Qoraqalpogʻiston viloyat qoʻmitasi kotibiyati Chimboy va Taxtakoʻpirdagi voqealar munosabati bilan Qoraqalpogʻiston poytaxti Toʻrtkoʻlda favqulodda holat eʼlon qilindi.

1957-yil — Parda Tursun taxallusi bilan ijod qilgan yozuvchi Parda Tursunov vafot etdi (tavalludi — 1909-yil). U 1937—1938-yillarda Oʻzbekiston Markaziy Ijroiya qoʻmitasi raisi kotibi lavozimida faoliyat yuritdi. U 1949-yilda dastlab «Oʻqituvchini yoʻlib», keyin esa 1951-yilda «Oʻqituvchi» romanini yozdi.

1991-yil — Toshkentdagi Oʻzbekiston Milliy bogʻida Alisher Navoiy haykali va uning nomi bilan ataladigan katta bogʻning ochilish marosimi boʻlib oʻtdi.

1993-yil — Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 48-sessiyasida mamlakatimizning Birinchi Prezidenti Islom Karimov ilk bor maʼruza qildi.

1998-yil — Toshkentda Osiyo Taraqqiyot bankining doimiy vakolatxonasi ochildi.

29-SENTABR — TUMANLAR TASHKIL TOPGAN KUNDA YUZ BERGAN VOQEALAR

1926-yil — Oʻzbekiston SSR Sovetlari Markaziy Ijroiya Qoʻmitasi V sessiyasining rayonlashtirish toʻgʻrisida qarori qabul qilindi. Unga muvofiq Oʻzbekiston SSR-da mavjud boʻlgan 7 ta viloyat, 23 ta uyezd, 241 ta volost va 1163 ta qishloq jamoasi oʻrmiga yangi maʼmuriy boʻlinish oʻtkazilib, 10 ta okrug (Xorazm, Buxoro, Oʻrta Zarafshon, Samarqand, Toshkent, Xoʻjand, Qoʻqon, Andijon, Surxondaryo, Qashqadaryo), alohida qozoq-qoraqalpogʻ Konimex tumani, 87 ta tuman va 1720 ta qishloq shoʻrosi tuzildi.

1929-yil — samarqandlik maʼrifatarvar, shoir Hoji Muin Shukrullo oʻgʻli shu kundan boshlab uch yil Sibirda surgunda boʻldi.

1929-yil — Toshkent viloyatida Ohangaron tumani tashkil etildi.

1937-yil — Qashqadaryo viloyatida Qamashi tumani tashkil etildi.

1952-yil — urganchlik Oʻzbekiston Respublikasi xalq oʻqituvchisi Oyibibi Oʻrozmetova dunyoga keldi.

1952-yil — Namangan viloyatida Mingbuloq tumani tashkil etildi.

1993-yil — fiziolog olim, Oʻzbekistonda xizmat koʻrsatgan fan arbobi Abror Sodiqov vafot etdi (tavalludi — 1906-yil).

2004-yil — Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi «Qarshi shahriining 2700 yilligini nishonlashga tayyorgarlik koʻrish toʻgʻrisida»gi qarori qabul qilindi.

Oʻzbekiston Milliy universiteti tarix fakulteti talabasi Alisher EGAMBERDIYEV tayyorladi.

“O'zgalor yordamiga muhtoj bo'lib qolgach, hech kim seni so'roqlamaskan”.

Og'riq

“Qariganda ko'chada qoldim-ku, bolam!”

— deydi buxorolik faxriy o'qituvchi, II guruh nogironi Sa'din Qurbonov

Buxoro viloyat hokimligi diqqatiga!

Sa'din domla Qurbonovning tahririyatimizga yo'llagan arznomasida ta'kidlanishicha, u oz emas, ko'p emas, 36 yil Buxoro davlat universitetida kimyo-biologiya fanlaridan bo'lg'usi muallimlarga saboq bergan. Bugungi kunga kelib esa, ikkinchi guruh nogironi ekani, turmush o'rtog'i va yolg'iz farzandi vafot etgani haqida kuyunib yozgan.

2006-yildan buyon uy-joyi yo'qligi sababli duch kelgan joyda yashayotganini, mutasaddi tashkilotlarga uy so'rab yo'llagan murojaatlari javobsiz qolayotganini ta'kidlagan. Ayni paytda savobtalab insonlardan biri — Amin Jo'rayev muruvvat ko'rsatayotganini, biror-bir manzilda ro'yxatda turmagani bois profilaktika inspektorlari uni jarimaga tortganini ham bildirgan.

Sa'din Qurbonov uysiz qolguniga qadar uyli edi. Buxoro shahridagi O'zbekiston ko'chasi 82-uy 91-xonadonda yashardi. Domla yashayotgan ana shu ikki xonali uyni “qadrdon do'st”lari u tushkunlikka tushgan, oilasi va farzandidan ayrilgan, g'am-g'usaga botgan kezlari vaziyatdan unumli foydalanib, uy hujjatlarini qo'lga kiritib sotib yubordi. Afsuski, buni domla bugun isbotlay olmaydi. Nega deganda Sa'din Qurbonovda o'ttiz yil ilgari degdek kuch-quvvat yo'q. U bugungi kunda o'zgalor yordamiga muhtoj.

Biz dastlab domla yashayotgan xonadonda bo'lib, u kishining holidan xabar oldik. U turgan ta'mirtalab xonaning holatidan ko'ngil ayniydi. Rosti, bunday og'ir sharoitda inson yashashi juda mushkul. Nachora, domla boriga shukr qilib, o'zgalor yordamiga muhtoj bo'lib kun kechirmoqda.

— Barcha murojaatlarim zoye ketmoqda, — deydi Sa'din domla Qurbonov ko'ziga yosh olganicha. — Qariganda ko'chada qoldim-ku, bolam. Qo'lingdan ish keladigan pallada hammaga kerak ekansan. O'zgalor yordamiga muhtoj bo'lib qolgach, hech kim seni so'roqlamaskan. Bu ko'rguliklar ham peshonamda bor ekan-da. Qani edi birortagina yaqinim bo'lsa-da, unikiida yashab, oyoq uzatib, omonatimni topshirsam.

Domlaning qiyin ahvolda yashayotgani, bir necha bor mutasaddi tashkilotlarga murojaat qilgani va murojaatlariga ijobiy javob qaytarilmagani bois Buxoro shahar hokimligida bo'lib, ba'zi mutasaddi shaxslarga tegishli savollar bilan yuzlandik.

Dastlab Buxoro shahar hokimligining Uy-joylarni hisobga olish va noturarjohlardan foydalanish davlat korxonasi rahbari Jamshid Eshonqulovga yuzlanib, Sa'din Qurbonov haqida so'radik. U savollarimizga javob berish o'rni qaysi buyruq va kimning ko'rsatmasiga asosan hokimlikka qadam qo'yganimizni, mutaxassislarga ortiqcha savol berib ularning qimmatli vaqtini olmasligimizni, yozma ravishda rasmiy murojaat qilsakkin javob olishimiz mumkinligini uqtirdi. Aks hol-

da eshikni orqasidan yopib qo'yishni eslatib o'tdi...

Hokim o'rinbosari Asror Hayitov bilan telefon orqali bog'lana olmadik. Tuman hokimi Karim Kamolovni ham uchratishning iloji bo'lmadi.

Sa'din Qurbonovning Buxoro shahri Samarqand ko'chasidagi 23-uyning “snos”dan omon qolgan, bugungi kunda hech kim yashamayotgan bir qismini so'rab yozgan murojaati haqida shahar hokimligi bosh mutaxassisi Ravshan Saidahmedov shunday dedi:

— Samarqand ko'chasidagi 23-uyning “snos”dan omon qolgan qismi himn albatta buziladi. Uni hech kimga bera olmaymiz. Bu borada ortiqcha bosh qotirish kerak emas.

Sa'din domla Qurbonovni qiynab kelayotgan uysizlik muammosini hal etish uchun biroq bo'lsa-da, yordam berolmaganimizdan xijolat tortib ortga qaytar ekanmiz, ko'kka bo'y cho'zgan asriy obidalariga boqib, shunday fikrlar o'tdi: ilming qubbasida deya qaralgan ko'hna va navqiron Buxoroyi sharifda faqat ilm-u urfon yo'lida xizmat qilgan inson bugungi dorilomon kunlarimizda ko'chada qolmaydi! Bunga kimdir e'tibor qaratadi!

O'ylaymizki, tez orada Sa'din domla Qurbonov muammosiga Buxoro shahar hokimligi, qolaversa, Buxoro viloyat hokimligi e'tibor qaratib, kekka o'qituvchining kemtik ko'ngliga shodlik ulashiladi. Mavzuga yana qaytamiz.

O'ktam MEYLIYEV,
“Ma'rifat” muxbiri

Besh tashabbus — besh imkoniyat

29-MAKTAB



Otaxon himmati

Jumaqul Qoryog'diyev Mirishkor tumanidagi Nayiston qishlog'ining kekka, yoshi ulug' kayvonilaridan. 98 yoshli otaxon hamon el orasida.

Tez-tez tumanidagi 29-maktab o'quvchilari bilan ham uchrashib, ilming inson hayotidagi o'rni haqida suhbatlar o'tkazib turadi. Yaqinda chevarasi hamrohligida ilm maskanida o'tkazilayotgan kitob yarmarkasida ishtirok etdi. Maktab kutubxonasiga pensiya puli hisobidan yigirma nomdagi kitoblarni sovg'a qildi.

— Chinakamiga ilm durlarini teradigan zamon keldi, — dedi Jumaqul bobo maktab o'quvchilari bilan uchrashuvda. — Siz uchun barcha shart-sharoit yaratilmoqda. Biz o'quvchi bo'lgan yillarni qo'ya-turaylik, yaqin o'tmishda ham ta'minlanganlik darajasiga qaratib, shahar va qishloq maktablari orasida katta farq bor edi. Endi asosiy vazifangiz — ilm olishdan bir zum bo'lsa-da, chalg'imasligingiz kerak.

Abdunabi ABDIYEV

Malaka toifa sertifikati

xalq ta'limi boshqarmalarida tuzilgan attestatsiya komissiyalari buyurtmanomasiga asosan beriladi

Keyingi paytlarda ijtimoiy tarmoqlarda, jumladan, gazetamizning “Telegram”dagi “Ma'rifat mushtariylari” guruhida ko'plab o'qituvchilar attestatsiyadan o'tganiga ikki-uch oy bo'lganiga qaramay, eski malaka toifasi bo'yicha haq olayotgani muhokama mavzusiga aylandi. Bunda ayrimlar malaka sertifikati o'z vaqtida yetib kelmagani uchun Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasini ayblagan. Ko'p sonli pedagog mushtariylarning talab va takliflariga binoan masalaga oydinlik kiritish maqsadida quyida Inspeksiya mas'ul xodimining maqolasi e'tiboringizga havola etilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi pedagoglarga oliy va birinchi malaka toifasi sertifikatining o'z vaqtida berilishi yuzasidan quyidagilarni ma'lum qiladi:

Maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar va maktabdan tashqari davlat ta'lim muassasalari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o'tkazish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 13-maydagi 392-sonli qarori bilan tasdiqlangan nizomga asosan amalga oshiriladi.

Mazkur hujjatga asosan attestatsiya ikki bosqichda o'tkaziladi:

birinchi bosqichda attestatsiyadan o'tuvchilarning o'quv fani bo'yicha malaka sinovi natijalari, dars o'tish mahorati va mehnati samaradorligi ekspert guruhi tomonidan o'rganiladi hamda tegishli tavsiyalar tayyorlanadi;

ikkinchi bosqichda attestatsiya komissiyalari ekspert guruhi tomonidan o'rganilgan birinchi bosqich natijalarini tahlil qiladi, attestatsiya jarayonida to'plangan hujjatlar jamlanmasini (portfoliosini) o'rganadi va pedagog kadrlari malaka toi-

fasida (lavozimida) qoldirish yoki boshqa toifa (lavozim) berish to'g'risida qaror qabul qiladi.

Mazkur nizomning 29-bandida “oliy, birinchi va ikkinchi malaka toifali pedagog kadrlarga sertifikatlar olish uchun Davlat inspeksiyasiga buyurtmanoma berish hamda attestatsiya o'tkazilgandan so'ng bir oy muddatda pedagog kadrlarni sertifikatlar bilan ta'minlash” vazifalari belgilangan.

Mazkur qaror ijrosini ta'minlash maqsadida Xalq ta'limi vazirligi hamda Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi hamkorligida 2019-yil 27-fevralda “Qoraqalpog'iston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, viloyatlar xalq ta'limi boshqarmalari va Toshkent shahar xalq ta'limi boshqarmasida oliy malaka toifasiga talabgor pedagog kadrlar attestatsiyasini o'tkazish bo'yicha attestatsiya komissiyalari tarkibini tasdiqlash haqida” 10/5-sonli qo'shma qaror tasdiqlangan. Ushbu qaror bilan tasdiqlangan attestatsiya komissiyalariga oliy, birinchi va ikkinchi malaka toifali pedagog kadrlarga sertifikatlar olish uchun Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasiga

buyurtmanoma berish hamda attestatsiya o'tkazilgandan so'ng bir oy muddatda pedagog kadrlarni sertifikatlar bilan ta'minlash vazifalari yuklatilgan.

Shu sababli o'qituvchilarning dars o'tish mahorati, mehnati samaradorligi va malaka (test) sinovlari bo'yicha olgan ballar asosida tegishli qaror qabul qilingandan so'ng xalq ta'limi boshqarmalarida Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasiga berilgan buyurtmanoma asosida sertifikatlar taqdim etiladi.

Hozirgi kunga qadar jami 5137 nafar (Sirdaryo viloyat xalq ta'limi boshqarmasiga 249 nafar, Navoiy viloyat xalq ta'limi boshqarmasiga 1333 nafar, Qashqadaryo viloyat xalq ta'limi boshqarmasiga 1580 nafar, Toshkent viloyat xalq ta'limi boshqarmasiga 545 nafar, Toshkent shahar xalq ta'limi boshqarmasiga 634 nafar, akademik litsey, kasb-hunar kollejlarning 796 nafar) pedagog uchun sertifikatlar Inspeksiya tomonidan tarqatilgan.

Afsuski, bir necha bor ogohlantirilishiga qaramasdan, ayrim hududiy xalq ta'limi boshqarmalari attestatsiya komissiyalari tomonidan sertifikatlariga buyurtmalar taqdim etilmaganligi sababli sertifikat o'z muddatida tarqatilmagan qolmoqda.

Safarali HAMROYEV,
Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi bo'lim boshlig'i

Mutasaddilardan javob keldi

Bosh hakamlar poytaxtdan yuboriladi

Gazetamizning shu yil 31-iyul sonida chop etilgan "Beburdlik yoxud "Yosh kitobxon" tanlovining Qashqadaryo viloyati bosqichidagi ko'zbo'yamachiliklar xususida" nomli maqolada Qashqadaryo viloyatida o'tkazilgan tanlov jarayoni bilan bog'liq tanqidiy holatlar qalamga olingan edi. Tahririyatimizga O'zbekiston yoshlar ittifoqi markaziy kengashi tomonidan ushbu maqolaga munosabat aks etgan javob xati keldi. Unda shunday deyiladi:

"Ma'rifat" gazetasining yoshlarga doir davlat siyosatini yoritishdagi faoliyatini qo'llab-quvvatlaymiz hamda O'zbekiston yoshlar ittifoqi tomonidan tashkil etilayotgan turli loyiha va tashabbuslardan xabardorligingizdan behad xursandmiz. Xabaringiz bor, so'nggi yillarda "Yosh kitobxon" respublika tanlovi yurtimiz yoshlari qalbidan chuqur joy oldi hamda o'tgan davr mobaynida xalq nazariga tushdi. Tanlov yildan yilga takomillashib, o'tgan davr mobaynida yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklar bartaraf etib borilmoqda. Bunda bar-

Ikkinchidan, tanlovning mahalliy bosqichlari (ya'ni tuman bosqichi) 2018-yil iyun oyida o'tkazilgan va hududiy bosqichga chiqqan ishtirokchilar ro'yxati O'zbekiston yoshlar ittifoqi Markaziy Kengashiga taqdim etilgan. Maqolada esa "Qizim g'olib deya e'lon qilingach, charchoqlar unutildi. Shundan keyin bizga Gulrangni ertasi kuni soat 9:00 ga qadar tanlovning viloyat bosqichida ishtirok etish uchun Qarshi shahridagi Yoshlar markaziga yetkazib borishimiz kerakligi aytili..." degan noxolis ma'lumot keltirib o'tilgan. Ma'lumki,



Biroq yoshlar tashkiloti tanlovning nufuzini tushirishga va uning haqqoniy ekanligiga shubha tug'diruvchi, dalil-isbot keltirilmagan, turli mish-mish va bir tomon manfaatini ifodalovchi, chuqur jurnalistik surishtiruv o'tkazilmagan har qanday ma'lumotlarga qarshi. "Ma'rifat" gazetasining 2019-yil 31-iyuldagi 59-sonida "Beburdlik yoxud "Yosh kitobxon" tanlovining Qashqadaryo viloyati bosqichidagi ko'zbo'yamachiliklar xususida" nomli maqola chop etilgan edi. Maqola yuzasidan quyidagilarni ma'lum qilamiz: muallif Abror Asorov 2018-yil "Yosh kitobxon" tanlovining Qashqadaryo viloyati bosqichini "beburdlik" deb atagan, albatta, bu muallifning istagi, lekin ushbu so'z negiziga e'tibor bersak, "so'zida turmaydigan, substsiz" ma'nosi zohir bo'ladi. Muallif kimni yoki nimani substsizlikda ayblayotganiga oydinlik kiritishi kerak. Maqolaning kirish qismida "tanlov nizomiga ko'ra, arizalarni qabul qilish va ro'yxatga olish jarayoni 10-noyabr-ga qadar davom etadi" degan noto'g'ri ma'lumot keltirib o'tilgan. Afsuski, muallif O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 12-maydagi "Buyuk allomalar, adib va mutafakkirlarimiz merosini keng targ'ib qilish maqsadida yoshlar o'rtasida kitobxonlik tanlovlari tashkil etish to'g'risida"gi PQ-3721-sonli qarori hamda ushbu qaror asosida "Yosh kitobxon" tanlovini o'tkazish tartibi to'g'risidagi 2018-yil 22-maydagi Nizomdan xabardor bo'lganida, aslida arizalar 2018-yil 1-iyungacha qabul qilinishini bilib olgan bo'lar edi.

"Yosh kitobxon" tanlovining Qashqadaryo viloyati bosqichi 2018-yil 12-14-noyabr sanalarida o'tkazilgan edi. Mahalliy va hududiy bosqichlar orasidagi muddat bir kun sifatida talqin qilingan. Bu esa maqola bir tomonlama, ya'ni tanlov ishtirokchisi Gulrang Ubayevaning onasi nuqtayi nazaridan kelib chiqib, yozilganligini, xolislik yo'qligini ko'rsatib turibdi. Bizningcha, ma'lumotlar xolisligi tekshirilib, tashkilotchilar bilan bog'lanib, vaziyat chuqurroq o'rganilishi kerak edi. Uchinchidan, maqolada keltirib o'tilganidek "g'oliblar oldindan belgilab olinayotgan" tushunchasi mantiqan noto'g'ri, chunki 2018-yil 22-maydagi "Yosh kitobxon" tanlovini o'tkazish tartibi to'g'risidagi qo'shma qarorga asosan hududiy bosqichlar hakamlar hay'ati tarkibiga muxassislar O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi hamda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tomonidan jalb etilishi belgilab qo'yilgan. Shu munosabat bilan tanlovning

15-19 yosh toifasida adolatlari va shaffof o'tishini ta'minlash maqsadida Qashqadaryo viloyat xalq ta'limi boshqarmasi tavsiyasiga ko'ra, Dilbar Choriyeva, Nargiza Ibodova hamda Qashqadaryo viloyat ma'naviyat va ma'rifat markazi tavsiyasi asosida Latif Qambarovdan iborat tanlovning hududiy bosqich hakamlar hay'ati tarkibi shakllantirilgan. Ushbu hakamlar oldindan qaysi yosh toifasida hakam bo'lishini bilmagan. Hakamlar hay'ati haqqoniy va adolatlari faoliyat yuritgani O'zbekiston yoshlar ittifoqi markaziy kengash vakili, ekspert Xurshida Dusbekova tomonidan tasdiqlangan. Maqolada hakamning "Ularga aytin, jim yurishsa, yanagi yili respublikaga o'tkazib beramiz" degan gaplari jurnalist tomonidan Nargiza Ibodovanning izohi bilan bayon etilisa maqsadga muvofiq bo'lar edi. Shuningdek, aytib o'tish lozimki, ushbu masala bo'yicha maqolada qayd etilganidek, fuqaro F.Saydaliyevaning 03-07/54 sonli (18.01.2019-y.) O'zbekiston yoshlar ittifoqi markaziy kengashi raisiga yo'llagan murojaati o'rganib chiqilgan (04-13/418 sonli. 28.01.2019-y.) hamda shu asosda Qashqadaryo viloyati kengashi tomonidan fuqaroga 02-06/93 sonli (29.01.2019-y.) asoslangan javob xati berilgan. "Yoshlar" telekanali tomonidan tasvirga olingan lavhalar taqdim etilgan hamda videotasvir orqali kitobxon Gulrang Ubayevaning xato va kamchiliklari ko'rsatib berilgan (xatlar nusxalari ilova qilinadi). Tanlov nizomiga ko'ra, hakamlar qo'ygan baholar qanday mezonlar asosida qo'yilgani bilan izohlanadi. Muallif keltirganday "qo'zi choq" taqdirini bo'rilar ixtiyoriga berish" kabi ma'noda ifodalanganligi kerak. Shuningdek, hakam haqida turli mish-mishlarga asoslanib, "g'oliblar oldindan belgilab olinayotgani" bo'yicha bo'hton gaplar bo'lmasligi dardkor. O'zbekiston yoshlar ittifoqi tanlovning xolis va adolatlari o'tishidan manfaatdor ekanligini alohida qayd etgan holda, joriy yildan boshlab, hududiy bosqichlarga bosh hakamlarni poytaxtda faoliyat yuritayotgan, o'z kasbining mahorati vakillarini jalb etgan holda tanlovni tashkil etmoqda.

N.ABDUQUODIROV, Markaziy Kengash raisining matbuot kotibi — axborot xizmati rahbari

Aks-sado

"Ma'rifat" gazetasining shu yil 29-iyun sonida Berdak Yusufning "To'rt muammoli harf" nomli maqolasi e'lon qilindi. Ushbu maqolada ko'tarilgan masala xususida men ham mulohazalarim bilan o'rtoqlashmoqchiman.

"Alifbe" mi yoki "Alifbo"?

Muallifning muammoli harflar bo'yicha bildirgan fikrlariga to'la qo'shilaman. U bilan suhbat davomida shunga amin bo'ldimki, olim — millat, xalq jonkuyari, bilim darajasi ham baland! Birinchidan, II (Ts) harfi va tovushi masalasida olimni haq deb hisoblayman. O'zbek tilida II tovushi yo'q, unga harfdan haykal qo'yish, menimcha, noo'rin. Ikkinchidan, Sh, Ch harf birikmalari shaklini diakritik belgilar bilan ixchamlashtirish mumkin. Bu xatolik emas. Sababi, bu ikki harfning tovush-talaffuz normalarida, artikulyatsiyasida muammoli jumboq yo'q! Ixchamlashtirish harfiy ko'rinishni sayqalashtiradi.

Uchinchidan, maqola muallifning Ng harf birikmasi yoki tovushi xususidagi fikrlari ham asosli. Bu harf va tovush munosabati mukammal tadqiq qilinishi lozim. Fikrimcha, bu harf kerak emas! Bu tovush imlo qoidalarida aks ettirilishi kerak.

Alifbo tartibidagi J tovushiga to'xtalsak. Uning hosil bo'lish artikulyatsiyasida ikki xil holat mavjud:

- 1) bir holatda u sirg'aluvchi J jarangli tovushini ifodalaydi: lug'atimizdagi vijdon, jurnal... so'zlarida talaffuz etiladi; 2) portlovchi, jarangli tovush: lug'atimizdagi jar, jasur, toj... so'zlarida talaffuz etiladi.

Berdak Yusuf maqolasida ta'kid etayotgan harflar keng jamoatchilik va ilmiy doiralarda keng muhokama etilishi, tadqiq qilinishi lozim.

O'zbek tilida Y harfi va tovushi mavjud. Y jarangli undoshi artikulyatsiyasida unli-



lar bilan yonma-yon kelgan bahsli holatlar o'rganilganmi? Imlo qoidalarida bu holat qanday tasniflangan?

O'zbek tilini lotin yozuvi asosida rivojlantirishni ma'qullayman. Bu alifbo chuqur o'rganilib, tahlil etilib, mukammal harflar tartibida sayqallanishi tarafdorim. O'zbek alifbosini mutlaqo o'zgartirish kerak emas.

Mavzu doirasida takliflarim ham bor: birinchidan, "Alifbo" so'zi "O'zbek harflari", "O'zbek harflari tartibi", "Harflar" tarzida ifodalangani ma'qul;

ikkinchidan, o'zbek alifbosiga o'zgartirish kirituvchi ishchi guruh a'zolari, ish taqsimoti va muloqotlar, xulosalar, suhbatlar yozma va og'zaki shaklda muntazam e'lon qilib borilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi;

uchinchidan, harflarning yozma va bosma shaklda emas, faqat bosma shaklda yozi-

lishi tarafdorim. Bu imloning savodxonlik texnologiyasiga mos bo'lishini ta'minlaydi; to'rtinchidan, imlo qoidalarini qayta ko'rib chiqilishi, batafsil, mukammal holatga keltirilishi lozim;

beshinchidan, yozma nutqni tartibga soluvchi rasmiy ish yuritish qoidalarini takomillashtirish zarur;

oltinchidan, fonetika sohasidagi ilmiy izlanish va dissertatsiya himoyalarga keng yo'l ochish, shu yo'nalishda ilmiy darajalar berilishini ko'paytirish va ko'plab ilmiy ustubiy qo'llanmalar chop etilishi dardkor; yettinchidan, "Davlat tili haqida"gi qonunni qayta ko'rib chiqish va unda til qoidalarini buzganlik uchun javobgarlik choralarini qat'iy lashtirish masalasi aks etishi lozim.

Alijon JABBOROV Namangan

Gazeta va gazetxon

Qalbgga yo'l ochuvchi kalit

"Ma'rifat" gazetasining 62-sonida chop etilgan "Bolani jazolash o'rinlimi?" maqolasini o'qib...

Maqolani o'qiy turib, chuqur o'yg'a toldim. O'ylarim o'quvchilik davrimga yetakladi.

Tabiatan sho'x sinfdoshim bo'lardi. O'tganga ham, ketgan-ga ham beozorgina tegajog'lik qilar, tanaffuslarda xoh katta, xoh kichik sinf o'quvchilari bo'lsin, oralariga kirib ba'zida yengil, ba'zida qo'pol hazil-huzul qilib ketaverardi. Tabiiyki, bu harakatlari hammaga birdek yoqvermas, jazolanardi. Dars vaqti ham "zerikib ketdim", derdi-da, yonida yoki atrofidagi o'tirganlarga qog'oz bo'laklarini o'tar, bundan sinf betartib bo'lib, o'qituvchi diqqatini tortardi. Hadeganda ustozdan tanbeh eshitardi. Xullas, sinfdagi shovqin-suronning boshida albatta o'sha sinfdoshim turardi. Ammo hech kimga yomonligi yo'q edi. Diliida bir chimdim bo'lsin, g'ubori yo'q edi. Hammamiz hurmat qilardik.

Bir kuni a'lochi, tartibi bilan namuna bo'ladigan bir sinfdoshim fizika darsi boshlanishidan oldin jihozlardan birini ko'rayotib, sindirib qo'ydi. Qo'ng'iroq chalimb, ustozimiz kirib keldi. Dars ham boshlandi... Hamma jimgina ustozni kuzatyapti. Mavzuni tushuntirayotib, jihatni qo'lga olgan o'qituvchimizning birdan yuz qiyofasi o'zgardi. Jahli chiqqanidan rosa baqirdi, eng yomoni, hech surishtirmay, asosiy aybdor qolib, sho'xligi bilan tanilgan sinfdoshimning oldiga keldi-da, yuziga tirsakni tordidi! Unga ham qanoat qilmay, maktab direktorini chaqirib kelishga navbatchini yubordi. Direktor kelgunga qadar faqat haqorat eshitib o'tirdik. O'zi qilmagan ish uchun jazolanayotgan sinfdoshim

hech nima demas, faqat nigohi bilan yer chizardi. Muallim a'lochi o'quvchining "Ustoz, men qildim, kechiring, bilmay qo'limdan tushirib yubordim" deganiga ham quloq solmadi. Juda katta ko'ngilsizlik bo'lgandek direktor va o'rinbosarlari kirib keldi. Ular ham he yo'q, be yo'q o'qituvchi urgan o'quvchini jazoladi. Hamma bir gapni takrorlard: "Sen hech qachon odam bo'lmasan!"

Leikin sho'x-shodon sinfdoshim bir marotaba bo'lsin, ustozdan xafa bo'lmadi, o'rtog'idan jahli chiqmadi. Ammo maktabni bitirguncha ham atrofdagilarning unga shu munosabati saqlanib qoldi.

Mana, yillarni ortda qoldirdi, men ham o'qituvchi bo'ldim. O'quvchilarimdan kimdir yoki biror fan o'qituvchisi boshqa o'quvchi ustidan arz qilsa, nigohi bilan "yer chizgan" sinfdoshim ko'z oldimda gavdalanaverardi. Do'stona munosabatda bo'lishga, jazo berishga shoshilmaslikka chaqiradi, go'yo.

Bolaga mehr bering! Mehr — har bir qalbnig kaliti. Bu kalit vositasida minglab iqtidorlilarni kashf etamiz, yomon yo'llarni bekitamiz!

Dildor NURMUHAMMEDOVA, Termiz tumanidagi 9-maktab o'qituvchisi

Mutasaddilardan javob keldi

Maktab direktori nega jazolandi? Xalq ta'limi vazirligi diqqatiga!

Gazetamizning shu yil 11-sentabr sonida "O'ttizinchi" o'gaymi? Yoki kichik maktabning katta muammosi" nomli maqola e'lon qilingan, unda Norin tumanidagi 30-maktabning 305 o'rinni bir qavatli o'quv binosida bor-yo'gi 9 ta sinfxona mavjudligi bois darslar ikki smenada tashkil etilayotgani tanqid qilingan edi.

Kuni kecha tahririyatga Namangan viloyat xalq ta'limi boshqarmasi boshlig'i V.Rajapov imzosi bilan javob xati keldi. Quyida uni o'zgarishsiz e'tiboringizga havola etyapmiz:

"Ma'rifat" gazetasining 2019-yil 14-sentabr kungi sonida "O'ttizinchi o'gaymi? Yoki kichik maktabning katta muammosi" sarlavhasi ostida tanqidiy maqola chop etilib, unda Norin tuman xalq ta'limi bo'limiga qarashli tumanning "Qo'rg'oncha" mahalla fuqarolar yig'ini Istiqol ko'chasida joylashgan 30-umumta'lim maktabida ta'lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish uchun shart-sharoitlar yetarli emasligi, maktabni yangi o'quv yiliga mukammal tayyorlash masalasiga jiddiy e'tibor qaratilmaganligi tanqid qilingan.

Mazkur holat viloyat xalq ta'limi boshqarmasi tomonidan o'rganib chiqildi. O'rganish jarayonida maqolada keltirilgan aksariyat holatlar o'z tasdig'ini topib, ularni bartaraf etish borasida zarur chora-tadbirlar belgilandi.

303 nafar o'quvchi ta'lim olayotgan maktabda yetarli darajada o'quv, fan va laboratoriya xonalari, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar uchun faollik zali, oshxonalar tashkil etish, ularni zamon talablari darajasida jihozlash, o'qituvchilarning namunalari faoliyat olib borishi va o'quvchilarning saboq olishlari uchun zarur shart-sharoit va qulayliklarni yaratish borasida amaliy faoliyatga kirishildi.

Xususan, bu maqsadlar uchun Norin tumani hokimligi tomonidan mahalliy budjetdan 60 million so'm, homiylik mablag'lari hisobidan 20 million so'm ajratilib, amaliy ishlar boshlab yuborildi.

Mazkur maktabdagi kamchilik va muammolarni bartaraf etish hamda ilm maskanining faoliyatini viloyat xalq ta'limi boshqarmasining doimiy e'tiborida bo'ladi.

Amalga oshirilayotgan ishlar aks etgan fotolavhalar ilova qilinadi."

Viloyat xalq ta'limi boshqarmasi rahbarining maqolaga tezkor munosabati, kamchiliklarni zudlik bilan o'rgangani bizni mamnun etdi. Ammo Xalq ta'limi vazirligiga yuborilgan javob xatida bayon etilishicha, yuqoridagi kamchiliklarga maktab direktori H.Karimova aybdor deb topilib, ta'lim muassasasini yangi o'quv yiliga tayyorlashda yo'l qo'ygan kamchiliklari uchun viloyat xalq ta'limi boshqarmasining 2019-yil 17-sentabrdagi 74-sonli buyrug'i bilan navbatdagi intizomiy jazoga tortilgani bizni hayron qoldirdi.

Vaholanki, maqolada ko'tarilgan muammo bartaraf etish, naqad maktab direktori, balki viloyat xalq ta'limi boshqarmasi boshlig'i vakolati doirasidagi ish emas. Shu ma'noda maktabga tuman hokimining tashrif buyurgani va mahalliy budjetdan zarur mablag' ajratilgani quvonarli. Biroq nima uchun maqola ortidan boshqar-ma boshlig'i maktab direktoriga intizomiy jazo qo'lladi?

Shu o'rinda javob xatiga ilova qilingan maktab direktori H.Karimovanning tushuntirish xatiga ham e'tiboringizni qaratamiz:

"2019-2020-o'quv yili boshlanishi munosabati bilan maktab homiylar yordamida ta'mirlangan.

Maktabda 10 ta sinfxona bo'lib, shundan



Adolatsiz g'oliblar

2008-yildagi kapital ta'mir vaqtida yuqori sinflar o'qiydigan 6 ta xona remont qilinib, eshiklar almashtirilgan. Lekin boshlang'ich sinflar o'qiydigan 4 ta sinfxona ta'mirlanmagani sababli eshiklari almashtirilmagan. Shu sababli eskirgan, yaroqlik muddati o'tgan boshlang'ich sinfxonalaridagi partalar ham eskirib ketgan.

Sport zali devorini ta'mirdan chiqardik. Lekin pol qismiga bo'yoq yetkaza olmay qoldik. Keyingi faoliyatimda bunday kamchiliklarga yo'l qo'yamayman."

Qadrlı mutasaddilar, boshqarma xodimlari, o'zingiz insof bilan aytin-chi, bu yerda maktab direktorining birorta aybi bormi? Yuqoridagi vazifalar aslida hokimlik zimmasidagi ish emasmi? Nahotki, viloyat xalq ta'limi boshqarmasi boshlig'i o'z qo'l ostidagi mutaxassisni shu tarzda himoya qilsa? O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoniga binoan Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari xalq ta'limi muassasalarini qo'llab-quvvatlash va ularning infratuzilmasini rivojlantirish masalasida har tomonlama ko'maklashadi.

Shuningdek, xalq ta'limi muassasalarini qurish, rekonstruksiya qilish, kapital va joriy ta'mirlash, ularga tutash hududlarni obodonlashtirish, infratuzilmani (trotuar, yo'llar va boshqalar) zarur holatda saqlash bo'yicha buyurtmachi funksiyasini amalga oshirish, tuman (shahar) kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha sektor rahbarlari bilan birgalikda xalq ta'limi muassasalarini o'quv yiliga va kuz-qish mavsumiga o'z vaqtida va samarali tayyorlash tadbirlarini amalga oshirish, muammolarni tez hal qilish bo'yicha choralar ko'rinishini tashkil etish uchun shaxsan javob beradi.

Shunday ekan, direktorni vakolatiga kirmaydigan ishni bajarmaganlikda ayblab, jazolash adolatdirmi?

TAHRIRIYAT

Faslning eng yaxshi ijodkori

Qaynoq fasl g'oliblari bilan tanishing

Aziz mushitariylar! Mana, yana bir qaynoq fasl — YOZ bilan xayrlashib, mehnatlar hosili terib olinadigan KUZ faslini qarshi oldik. Yoz davomida ijodkor-pedagoglar, olim-u mutaxassislar, professor-o'qituvchilar, talaba-yoshlarning faolligi sabab gazetamiz sahifalarida dolzarb mavzularda ko'plab tahliliy-tanqidiy, mulohazali maqolalar, ta'lim-tarbiyaga oid amaliy takliflar, munosabat va

sharhlar, badiiy ijod namunalari e'lon qilindi. "Faslning eng yaxshi ijodkori" tanlovining yoz fasli (2019-yil iyun, iyul, avgust oylari) g'olibligi uchun faol mualliflarimiz asosiy da'vogarlar safida bo'ldi. Albatta, ularning ichidan eng munosiblari saralandi va g'olib deb topildi. G'oliblikni qo'lga kiritgan ijodkor mushitariylarimizga, ilg'or pedagog mualliflarimizga samimiy minnatdorlik bildiramiz.

Tanlov nominatsiyalari nomi	G'olib material nomi va e'lon qilingan sanasi	G'olib mualliflar
"Eng yaxshi tahliliy-tanqidiy maqola"	"Endi oromgohga bormayman, oyi" (14-avgust)	Shoira Boymurodova
"Original bir soatlik dars yoki tadbir senariysi"	Bir soatlik dars mashaqqati (21-avgust)	Alisher Egamberdiyev, O'zMU talabasi
"Pedagog-muallifning dolzarb materiali"	OTM fan olimpiadasi talabaga imtiyoz bersin (22-iyun)	Bashorat Bahriddinova, Qarshi davlat universiteti "O'zbek tilshunosligi" kafedrasini mudiri, filologiya fanlari nomzodi
"Eng yaxshi ocherk yoki esse"	Katta soddadil odam Yoxud "Sarob" dan "Qonli sarob" gacha (10-avgust)	Suvon Meli
"Ta'lim-tarbiyaga oid amaliy taklif"	Ilmiy unvonlar berishda OAK aralashuviga chek qo'yish kerak (31-iyul)	Bahodir Kamolov, NamDU "Ekologiya" kafedrasini professori, geografiya fanlari doktori

Tanlovning yuqorida keltirilgan nominatsiyalarida g'oliblikni qo'lga kiritgan mualliflar tahririyatning faxriy yorlig'i va eng kam ish haqining 3 baravari miqdoridagi mukofot bilan taqdirlanadi.

"Voqelikka munosib sharh yoki munosabat"	"Nosoz tarozi" bilan o'quvchi bilimini o'lchamang" (7-avgust)	Abdurashid Solijonov, testolog mutaxassis
"Sermazmun sahifa"	Ishonchingiz bizga kuch bag'ishlaydi (26-iyun)	Sardor Mustafoyev
"Samarali metodik material"	"Asar tilini o'rganamiz" (31-avgust)	Dildor Nurmuhammedova, Termiz tumanidagi 9-maktabning ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi
"O'qishli badiiy asar"	Muallimning sukuti (24-iyul)	Raxshona Ahmedova

Tanlovning yuqorida keltirilgan nominatsiyalarida g'oliblikni qo'lga kiritgan mualliflar tahririyatning faxriy yorlig'i va eng kam ish haqining 2 baravari miqdoridagi mukofot bilan taqdirlanadi.

"Pedagoglar huquqi himoya qilingan eng yaxshi material"	"Direktorga mudir ham chora ko'rolmaydi! Chunki u viloyat XTB boshlig'ining ayoli" (6-iyul)	Sharifa Madrahimova
"O'ziga xos yangilik"	Maqsadli bitim imzolandi (8-iyun)	Abdurahim Nosirov, Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi bosh boshqarmasi boshlig'i
"Eng yaxshi tarjima materiali"	Muallim (3-iyul)	Humoyun Akbarov
"Talaba-jurnalistning yorqin publitistik ishi"	Jo'ramga maktub (31-iyul)	Humoyun Quvondiqov
"Jozibali fotolavha yoki surat"	"Bo'ston" da ta'vil to'garaklari (17-iyul)	Sultonboy Dehqonov

Tanlovning yuqorida keltirilgan nominatsiyalarida g'oliblikni qo'lga kiritgan mualliflar tahririyatning faxriy yorlig'i va eng kam ish haqining 1 baravari miqdoridagi mukofot bilan taqdirlanadi.

O'quvchi nutqi ravon bo'lsin

Olmazor tumanidagi 134-maktab direktori Dilnoza Tayloqova 11-sinf o'quvchilari ishtirokida "Nutq madaniyati" mavzusida ochiq dars o'tdi.



Ochiq darsni tumandagi maktablarning direktorlari, o'quv ishlari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosarlari, xalq ta'limi bo'limi metodistlari, A. Avloniy nomidagi XTMXMOQTM professor-o'qituvchilari kuzatib bordi.

Dilnoza Tayloqova ochiq darsda nutq madaniyatining inson hayotidagi ahamiyati, yosh avlodni ota-onaga, kattalarga hurmat, Vataniga muhabbat ruhida tarbiyalash, o'quvchilarning mustaqil fikrli bo'lib ulg'ayishiga e'tibor qaratdi. Mashg'ulot davomida o'quvchilarning fanga oid hamda tayanch kompetensiyalarini shakllantirish maqsadida "Suratdagi sir", "Aqliy hujum" kabi interfaol usullardan samarali foydalanildi. Ayniqsa, "Suratdagi sir" metodi o'quvchilarning darsga qiziqishini oshirdi. Bunda pedagog guruhlariga rasmlar tarqatib, shu asosda matn tuzishni topshirdi. O'quvchilar rasm asosida matn tuzib, o'qib berdilar. Bu mashg'ulot orqali bolalarning yozma va og'zaki nutqi rivojlantirildi.

Ochiq dars muhokamasida ishtirok etgan metodist va mutaxassislar mashg'ulotning yutug'i, e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan jihatlar xususida fikr bildirdilar.

Maftuna PIRNAZAROVA, O'zDJTU talabasi



Qodiriy oyligi

Yoshlar qalbida vatanparvarlik va mardlik kabi olijanob tuyg'ularni shakllantirish maqsadida Sergeli tumanidagi ta'lim muassasalarida sentabr oyi "Abdulla Qodiriy oyligi" deb e'lon qilindi.

Tumanimizdagi 32-umumta'lim maktabida oylik doirasida ma'naviyat kunlari o'tkazilyapti. Bu tadbirlar o'quvchi yoshlarning tarbiyasi, axloqi va ma'naviy kamolotiga ko'mak bermoqda. Buyuk adib Abdulla Qodiriy qalamiga mansub asarlar mutolaasiga e'tibor qaralib, uning ijodiga bag'ishlangan tadbir tashkil etildi.

Tadbirda Muqimiy nomidagi musiqali teatri aktrisasi Maqsuda Otajonova va teatr ma'muri Xayrulla Ikromov ishtirok etib, spektakllardan parchalar ijro etishdi. She'r, qo'shiq va raqslarga ulangan badiiy kecha katta-yu kichikka zavq ulashdi.

Shohista XUDOYNAZAROVA, shu maktab direktorining ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari

Tabiat va biz

Muqobili yo'q ne'mat uni asrash insoniy burch

Inson tafakkuri juda ko'plab tabiiy ne'matlarning muqobili, ekvivalentini topgan. Tabiiy yog'och, metall o'rmini plastiklar, polimer birikmalar egallamoqda, gaz, elektr manbalari, yoqilg'i ham yangi muqobil manbalarga joy bo'shatib bermoqda. Hatto tuproqsiz hosil yetishtirish texnologiyalari kashf etildi. Ammo dunyoda muqobili mavjud bo'lmagan yagona resurs, bemisl ne'mat bor. U suvdur. U tufayli tiriklik mavjud. Obihayot ekologik muhitni asrovchi asosiy manba. Global isish, ekologik o'zgarishlar, atrof-muhitga bo'lgan xo'jasizlarcha munosabat tufayli mana shu ne'mat taqchilligi kuzatilmoqda. Globusga qarasangiz, sayyoramizning asosiy qismini suv qoplaganini ko'rasiz va bu resurs cheksizday ko'rinadi. Biroq aslida unday emas.

— Yer yuzasining suv bilan ta'minlangani 1400 mln kub km ni tashkil etgani holda, uning 0,26 foizi foydalanish uchun yaroqli hisoblanadi, — deydi iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) Azamat Ahmedov. — Butun dunyoda yerusti chuchuk suvlarining 61 foizidan sug'orishda foydalaniladi. Xalqaro suv menejmenti instituti tadqiqotlari natijasida aniqlanishicha, 1,2 mlrd kishi suv taqchil bo'lgan hududlarda istiqomat qilmoqda. Suv taqchilligi, uning ifloslanishi boshqa ekologik muammolar, xususan, oziq-ovqat xavfsizligi muammosini vujudga keltiradi. Yana shu narsa aniqki, suv resurslari yetarli bo'lmagan mintaqalarda ishlab chiqarish, mehnat va moliyaviy resurslar yetishmovchiligi kuzatilgan. Suv taqchilligi qishloq xo'jaligining barqaror rivojlanishi imkoniyatlarini cheklaydi. Shunday sharoitda suv resurslarini tejash borasida yangicha yondashuvlarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish — dolzarb vazifa. 2017—2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida ham qishloq xo'jaligining ishlab chiqarish sohasiga intensiv usullarni, eng avvalo, suv va resurslarni tejaydigan zamonaviy agrotexnologiyalarni joriy etish belgilangan. Bu mamlakatimizda suv taqchilligi muammosining oldini olishga xizmat qiladi.

Xo'sh, suvni tejashda ko'makchi bo'lgan zamonaviy texnologiyalar qaysilar? Ular qanday paydo bo'lgan? Olimlarning bu boradagi eng so'nggi yutuqlari nimadan iborat?

Gap shundaki, suv tanqisligi muammosini bartaraf etish bo'yicha qator ilmiy izlanishlar olib borilgan. Shunday qilib, suvning asosiy iste'molchisi bo'lgan soha — qishloq xo'jaligida suvni tejashning yangi, zamonaviy usullari — tomchilatib sug'orish, gidrogeldan foydalanish, yomg'irlatib sug'orish, yerni lazerli tekislash, yer ostidan tomchilatib, plynka tashlab sug'orish, ko'chma egiluvchan quvurlar orqali sug'orish, beton va plastmassa lotoklar yordamida suvni uzatish, tuproqni mulchilash kashf etildi. Kundalik maishiy turmushda suvni iqtisod qiluvchi, suv tejovchi kran, yo'mrak, dush yaratildi. Quyida suv resurslaridan oqilona foydalanish

bo'yicha yangicha yondashuvlar, ishlanmalar, ularning paydo bo'lish tarixi, eng so'nggi yutuqlari haqida so'z yuritmoqchimiz. Bu materiallardan qishloq va suv xo'jaligi yo'nalishidagi fanlarni o'qitish, ekologiya va tabiatshunoslik to'garaklarida foydalanish mumkin.

Tomchilatib sug'orishning ilk natijasi

1946-yili Negev dashtida keyinchalik «Isroil sabzavot bazasi» nomini olgan hudud tashkil etildi. Bu bir qarashda o'zini oqlamaydigan tadbir edi. Sababi, sho'rlangan tuproq qishloq xo'jaligida foydalanishga yaroqsiz hisoblanardi. Ammo bugunga kelib tomchilatib sug'orish texnologiyasi joriy etilishi evaziga Yevropaga eksport qilinadigan sabzavotlarning aksariyat qismi Negev sahrosida yetishtiriladi. Xo'sh, cho'lni bo'stonga aylantirgan kashfiyot — tomchilatib sug'orish qanday yuzaga keldi?

Tomchilatib sug'orish texnologiyasi yaratilishiga, uning asosiy xomashyosi polietilen olish texnologiyasi kashf etilishi turtki bo'lgan. Tomchilatib sug'orishning «otasi» — Simha Blass. U Varshavada tavallud topgan. 1930-yili Isroilga kelgach, suv resurslari bo'yicha muhandis bo'lib ishlaydi va eng yirik suv ta'minoti loyihalarining muallifiga aylanadi.

Bir kashfiyot tarixi

Ko'plab ixtirolarning yuzaga kelishiga tasodif, xayolda yarq etib paydo bo'gan fikr turtki bo'lganini bilamiz. Blass ham yo'l bo'yidagi katta daraxtni ko'rib, tomchilatib sug'orish tizimini yaratadi. U daraxt ildizini oziqlantiruv-

chi quvur liniyasidagi suv qanday oqishi kerakligi, kamroq suv berish orqali ham namlikni saqlash mumkinligi haqida o'yladi. Olim yangi sug'orish tizimini rivojlantirish uchun turli materiallarni sinovdan o'tkazdi. Bir tekis suv ta'minotini ta'minlash uchun optimal suv bosimini qidirdi, barqaror pasayish hosil bo'lishi uchun oqimni sekinlashtirdi. Shunday qilib, 1959-yili birinchi tomchilatib sug'orish qurilmasi ishlab chiqildi va patentlandi. 1966-yili dunyodagi birinchi tomchilatib sug'orish tizimi joriy etildi. Natijada hosildorlik oshdi, suv esa tejaldi. Keyinchalik mazkur texnologiya butun dunyoga tarqaldi. Albatta, biz bugun texnologiyaning mukammallashgan shakliga qarab, unda yana yuzlab olimlarning mehnati yotganini ko'ramiz. Masalan, sug'orish sohasida 25 dan ortiq patent muallifi bo'lgan okeanortilik olim Richard Chapin issiqxonada gularni sug'orish uchun birinchi «suvli tizim»ni yaratgan. Olim 1960-yili tomchilatib lentasini sinab ko'rdi. Diametri bir dyuum bo'lgan mazkur qora plastik naycha tomchilatib sug'orish texnologiyasining asosiy tarkibiy qismiga aylandi.

1976-yili boshqa mutaxassislar tomonidan quvur ichidagi suvning sifati va bosimidan qat'i nazar, bir tekis oqishini ta'minlaydigan tizim, 1982-yili tashqi tomchilar texnologiyasini o'zida mujassam etgan kompensatsion tomchilatuvchi liniyalar tizimi ishlab chiqilgan. 1980-yillarning ikkinchi yarmida ingichka devorli, tomchilatuvchi lenta amaliyotga joriy etildi. Bu yangi texnologiya narxini sezilarli darajada pasaytirdi. Takomillashuv natijasida tomchilatib sug'orishni issiqxonalarda, katta qiyaaliklarda qo'llash imkoni yaratildi. Qishloq xo'jaligida suvni tejash, dehqon-u miroblarga ko'mak berishga bel bog'lagan olimlarning mikrosug'orish sohasidagi yutuqlari suv tanqisligi oqibatlarini yumshatish, millionlab odamlarning hayotini yaxshi tomonga o'zgartirishga yordam bergan.

Shunday qilib, qurg'oqchil iqlimga ega bo'lgan AQSh, Avstraliya, Hindiston, Janubiy Afrika va Yaqin Sharq mamlakatlarida bu tizim ommalasha bordi. 2005-yilga kelib AQSh tomchilatib sug'oriladigan hududlar miqyosi bo'yicha dunyoda yetakchi o'ringa chiqib oldi. Keyingi o'rinlarni Hindiston va Ispaniya egalladi.

Gidropon texnologiyalar bugun juda keng rivojlandi. Ular granula, kukun va hatto sharchalar ko'rinishida ishlab chiqarilmoqda. Maxsus polimerlar o'zidan 10 marta katta bo'lgan miqdordagi suvni shimib olish, asl hajmidan 300 barobar kattaroq shaklda shishish va shuning evaziga tuproqdagi namlikni saqlash xususiyatga ega. Bir gramm gidrogel bir stakangacha suvni o'zida saqlay oladi.

Bir stakan suvni saqlashga qodir

Qurg'oqchil sharoitda ham mo'ljil hosil garovi, kafolati bo'lgan gidrogel yaratish bo'yicha izlanishlar Ikkinchi jahon urushidan keyin boshlangan. Bu davrda aholining oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabining keskin oshib borishi suvsiz hududlarda ham ekin ekish zaruratini keltirib chiqardi. Bu sohada Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya, AQSh, keyinroq Xitoy kimyogarlari muvaffaqiyatga erishdi. Mazkur mamlakatlarda ilk gidrogel namunalar yaratildi va tonnalab ishlab chiqarilishi yo'lga qo'yildi. Gidrogellar o'z zimmasiga ikkita vazifani olgan edi. Birinchisi tuproqda namlikni saqlash bo'lsa, ikkinchisi, tarkibidagi yengil birikuvchi kaliy sababli yerni o'g'itlash edi. Masalan, Olmoniyada kashf etilgan gidrogel o'z tarkibiga 21 foiz kaliyni biriktirgan. Gidrogelning bu kabi foydali xususiyatlari turli iqlimga ega bo'lgan katta maydonlarda hosildorlikni 30—60 foizgacha oshirdi. Germaniya tabiatga zararsiz, aksincha ekologik tozalikni ta'minlovchi gidrogellarni ishlab chiqarish sohasida haligacha yetakchilik qilib kelmoqda.

Gidrogelning muqobili o'tgan asrning 50-yillari so'ngida O'zbekistonda ham sinovdan o'tkaziladi, bu sohada muayyan natijalarga erishildi. Bu paytda sobiq Ittifoqda suvni tejash, ekologik sofikni ta'minlash xususida emas, qanday yo'l bilan bo'lmasin, paxta yetishtirish masalasi ustuvor bo'lgan.

Gidropon texnologiyalar bugun juda keng rivojlandi. Ular granula, kukun va hatto sharchalar ko'rinishida ishlab chiqarilmoqda. Maxsus polimerlar o'zidan 10 marta katta bo'lgan miqdordagi suvni shimib olish, asl hajmidan 300 barobar kattaroq shaklda shishish va shuning evaziga tuproqdagi namlikni saqlash xususiyatga ega. Bir gramm gidrogel bir stakangacha suvni o'zida saqlay oladi.

Uni «akvagrunt», ya'ni suv-tuproq nomi bilan ham atashadi. Bugun u nafaqat qishloq xo'jaligi, balki xonaki sharoitda o'simliklar o'stirishda ham keng qo'llanilmoqda.

"Tabiatning o'zi tabib"


Tuproqni mulchilash tuproq yuzasini biror narsa, deylik, o't-o'lan, yaproq, plynka, gazlama bo'lmagan biror maxsus material bilan yopish deganidir. Bu usulni tabiatning o'zi kashf etgan. Zero, kuz kelishi bilan yerga barglar to'kiladi, o'simliklar qovjirab tuproq yuzini yopadi, bu esa yerning ustki qatlamini tabiiy ta'sirlardan — shamol, yomg'ir, quyosh nuridan asraydi. Shaffof plynka yerdagi haroratni 5—10, qora yopinchiq esa 2—4 darajada ushlab turadi.

Bu kabi himoya qobig'i begona o'tlar o'sishining oldini oladi, namlikni saqlaydi. Mulchilash tomchilab sug'orish bilan birga olib borilganda, suvni 50 foizgacha tejash imkonini beradi.

Xalqaro hamkorlik

Turkiy kengash doirasidagi hamkorlikdan manfaatdormiz

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2009-yilning 3-oktabr kuni imzolangan "Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashini tuzish to'g'risidagi Naxichevan Bitimini ratifikatsiya qilish to'g'risida"gi qonunni imzoladi. Mazkur Qonun O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining yigirma ikkinchi yalpi majlisida tasdiqlandi.



Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashi turk dunyosi mamlakatlari mulqoti va hamkorligini rivojlantirish uchun tashkil etilgan xalqaro platformadir. Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashi xalqaro hukumatlararo tashkilot bo'lib, faoliyatining asosi turkiy tilli mamlakatlarda o'rtasida do'stlik va qo'shnichilikni mustahkamlash, hududda va jahonda tinchlikni saqlash, xavfsizlik va o'zaro ishonchni mustahkamlashga qaratilgan.

2009-yilning 3-oktabrida Ozarboyjonning Naxichevan shahrida Turkiya, Ozarboyjon, Qozog'iston va Qirg'izistondan iborat to'rt davlat ishtirokida Turkiy tili davlatlarning hamkorlik kengashi tuzilgan e'lon qilingan bo'lib, uning faoliyati prinsiplari 2016-yil 16-sentabrda Istanbul deklaratsiyasida e'lon qilingan. Birinchi bosqichda Turk Kengashiga Turkiya, Ozarboyjon, Qozog'iston va Qirg'iziston a'zo bo'lib kirgan. Vengriya tashkilotda kuzatuvchi mamlakat sanaladi.

Ushbu kelishuvdan keyin turkiy tilli davlatlar manfaatini birlashtiruvchi jiddiy tashkilot paydo bo'ldi. Endi bu xalqaro tashkilotga aylandi. Dastlab 1992-yildan Turkiy tilli davlatlar sammiti o'tkazila boshlangan edi. Kengashni tashkil etish tashabbuskori Qozog'istonning birinchi prezidenti Nursulton Nazarbayev hisoblanadi. Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashi sammiti 2010-yildan boshlab 2015-yilgacha har yili o'tkazib kelingan. 2015-yili sammitni o'tkazish navbati Qirg'izistonga kelgan edi. Biroq bu davrga kelib Qirg'izistonning o'sha paytdagi prezidenti Almazbek Atambayev Turkiya va Qozog'iston bilan aloqalarni sovuqlashtirgan natijasida bu sammit o'tkazilmay qolgan edi.

E'tirof etish kerak, tashkilotning o'z kotibiyati va hamkorlikka oid kerakli hujjatlari bor. Ushbu kengash siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniyat va sportga oid barcha masalada hamkorlik qilishni

nazarda tutadi. Tashkilot tarkibi turkiy tilli davlatlarning rahbarlari kengashi, Tashqi ishlar vazirlari kengashi, Katta mansabdor shaxslari qo'mitasi, Qosqollari kengashi va Bokudagi Parlament assambleyasi, Nur-Sultonda Turk akademiyasi, Anqarada turk madaniyati xalqaro tashkiloti (TURKSOY) va Kotibiyatdan tashkil topgan. Kotibiyat Istanbul shahrida joylashgan. Turk kengashi yaqinda Budapeshtda o'z vakolatxonasini ochishni rejalashtiryapti. 2019-yilning may oyida esa qo'shma turk savdo-sanoat palatasi ta'asis etildi. Yaqin vaqtlarda Turk investitsiya forumi o'z faoliyatini boshlashi kutilmoqda.

Turkiya Respublikasi Prezidenti Rajab Toyyib Erdo'gan 2018-yilning 29-30-aprel — 1-may kunlari O'zbekistonga amalga oshirgan rasmiy tashrifi davomida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevga Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashiga a'zo bo'lish va sentabr oyida Qirg'izistonning Cho'lponota shahrida o'tadigan navbatdagi sammitda ishtirok etishni taklif qilgan edi. 2018-yilning 3-sentabr kuni Qirg'izistonning Cho'lponota shahrida bo'lib o'tgan sammitda Prezident Shavkat Mirziyoyev birinchi marta O'zbekiston nomidan faxriy mehmon sifatida ishtirok etdi. Dunyodagi turkiy tilli 6 davlatdan biri bo'lgan O'zbekiston rahbariyati 2018-yilgacha Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashi sammitlaridan birortasida ishtirok etgan emas.

O'zbekiston rahbari sammitda so'zlagan nutqida xalqlarimizni o'xshash til,

mushtarak ma'naviy qadriyatlar va hamkorlik rishtalari bir-biriga bog'lab kelayotgani, bugungi kunda Kengashning siyosiy kun tartibida hech bir muammo yoki kelishmovchilik mavjud emasligini qayd etdi. "Mamlakatlarimiz dolzarb xalqaro va mintaqaviy masalalarda o'zaro mos yoki yaqin qarash va yondashuvlarga amal qilib kelmoqda. Ayni vaqtda xalqlarimizning hayotiy manfaatlariga to'la javob beradigan iqtisodiyot, investitsiya, innovatsiya, transport va kommunikatsiya, turizm, ilm-fan va ta'lim kabi sohalarida o'zaro hamkorlik faol rivojlanmoqda", dedi Shavkat Mirziyoyev.

Darhaqiqat, mamlakatimiz Prezidentining siyosiy irodasi, ochiq va amaliy tashqi siyosati natijasida Markaziy Osiyoda vaziyat o'zgardi, mintaqada davlatlari o'rtasida do'stona aloqalar mustahkamlandi. O'zbekiston rahbarining Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkiya, Ozarboyjon prezidentlari bilan uchrashuv va muloqotlari samarasida turli sohalaridagi hamkorlik yanada rivojlandi. O'zbekistonning Turkiy kengashga a'zo davlatlar bilan o'zaro savdo hajmi oxirgi bir yilda 40 foizdan ziyod oshdi.

O'zbekiston Prezidenti bu ko'rsatkichlardan ancha yuqori marralarga erishish mumkinligini ta'kidlab, Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashi doirasidagi aloqalarni rivojlantirishga doir muhim yo'nalishlarga to'xtalib o'tdi. Bular, eng avvalo, savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy hamkorlikni kengaytirish, yetakchi sanoat korxonalarini, bank-moliya institutlari va tadbirkorlik tuzilmalari o'rtasida kooperatsiya aloqalarini kuchaytirishdan iborat. Transport yo'nalishlarining integratsiyalashgan tarmog'ini yaratish, dunyo va mintaqadagi asosiy bozorlarga chiqish masalasi ham manfaatlarimizga mos keladi. Mamlakatlarni innovatsion asosda rivojlantirish, bu sohaga mas'ul bo'lgan idoralar, ilmiy-tadqiqot markazlari va venchur kompaniyalar o'rtasida hamkorlikni kengaytirish ham eng zarur yo'nalishlardan. Turizmni rivojlantirish bo'yicha ulkan imkoniyatlar, madaniy-gumanitar aloqalar mustahkamligi ham xalqlarni yanada yaqinlashtirishni ta'kidlash o'rinli. Shu nuqtayi nazardan O'zbekiston Prezidentining Cho'lponotadagi uchrashuvda qadimi Xivani tashkilot poytaxtiga aylantirish taklifi e'tiborga molik.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, O'zbekiston Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashiga a'zo mamlakatlar, avvalo, qo'shni davlatlar bilan hamkorlikni izchil rivojlantirayotgani, ushbu xalqaro tuzilmaning kelaja-

giga katta umid va ishonch bilan qaratilgan dalolat beradi.

"Turkiy kengash doirasida o'zaro samarali hamkorlikni yanada rivojlantirishdan manfaatdormiz. Hozirgi bosqichda uning faoliyatida mamlakatimiz uchun amaliy jihatdan qiziqish uyg'otadigan yo'nalishlar bo'yicha ishtirok etishga tayyormiz", degan edi Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev.

Qirg'izistonning 2017-yil kuzida saylangan Prezidenti Sooronbay Jeyenbekov Turkiy tilli davlatlar sammitini 2018-yilning 3-sentabrda o'tkazish to'g'risidagi farmoni 21-iyun kuni imzolagan. Mazkur sammitning o'tkazilishi o'shanda Qirg'iziston uchun Turkiya va Qozog'iston bilan aloqalarning yaxshilanayotganini anglatgan edi.

Qolaversa, o'shanda Qirg'iziston Prezidenti Sooronbay Jeyenbekov O'zbekistonning Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashida ishtirok etish niyatini yuqori baholagan edi. Qirg'iziston Prezidentining so'zlariga ko'ra, bu qadam Turkiy kengashning kengayishi va uning xalqaro maydondagi nufuzi oshishi uchun yaxshi sharoit yaratadi, tashkilotga yangi nafas beradi hamda ko'plab yangilanishlar manbayiga aylanadi. U mazkur sammit turkiy tilli davlatlarning ko'p asrlik do'stligini yanada yuqori bosqichga ko'tarishiga va uning tarixida yangi sahifa ochishiga ishonch bildirdi. Unga ko'ra, O'zbekistonning Turkiy tilli davlatlar kengashiga qo'shinishi Xitoy—Qirg'iziston—O'zbekiston temir yo'li qurilishining tezroq boshlanishiga turtki bo'ladi.

Boshqa a'zo davlatlar ham O'zbekistonning Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashi (Turk kengashi)ga a'zo bo'lib kirishini qo'llab-quvvatladi. Ular qatorida Qozog'iston, Turkiya va Ozarboyjon davlatlari bor. Ozarboyjon tashqi ishlar vazirligi O'zbekistonning 2019-yil 14-sentabrda to'g'ri kelgan Naxichevan kelishuvi ratifikatsiyasini yakunlashi turkiy tilli davlatlar birlamligini mustahkamlashda navbatdagi muhim voqea bo'lganini e'tirof etdi. "O'zbekiston Respublikasining Turk kengashida o'zini taqdim etish qarori bizning ko'p asrlik chuqur ildizlarga asoslangan madaniy va tarixiy qardoshligimizni yanada rivojlantirish, zamon talablariga muvofiq turkiy tilli davlatlar manfaati, farovonligi nuqtayi nazaridan muhim ahamiyatga ega. O'zbekistonning Turk kengashiga qo'shinishi haqidagi tarixiy qarorning Naxichevan kelishuvi imzolanishining 10 yillik sanasiga to'g'ri kelishida Ozarboyjon Respublikasi uchun alohida ramziy ma'no bor. Shu yilning 15-oktabr kuni Bokuda bo'lib o'tadigan Turk kengashining 7-sammitida Prezident Shavkat Mirziyoyev boshchiligidagi qardosh O'zbekiston delegatsiyasini qarshi olish ko'ngilli xushxabar va ulkan sharafdir", deyiladi Ozarboyjon tashqi ishlar vazirligining bayonotida.

«O'zbekiston Respublikasining Turk kengashida o'zini taqdim etish qarori bizning ko'p asrlik chuqur ildizlarga asoslangan madaniy va tarixiy qardoshligimizni yanada rivojlantirish, zamon talablariga muvofiq turkiy tilli davlatlar manfaati, farovonligi nuqtayi nazaridan muhim ahamiyatga ega».

Miyani qarishdan to'xtatish mumkin

Kembrij universiteti olimlari miya hujayralari qarishining oldini olish bo'yicha kalamushlarda o'tkazilgan tajribalar muvaffaqiyatli yakunlanganini ma'lum qildi. Tadqiqot natijalari "Nature" jurnalida chop etildi.

Inson qarigani sari mushak va to'qimalari qattiqlashib, harakatlanishi qiyinlashadi. Kembrij universiteti qoshidagi Miya hujayralari instituti olimlari miya ham bundan mustasno emasligini bildirdi. Ular tadqiqot jarayonida yosh va qari kalamushlarning miya hujayralari o'rganib, to'plangan ma'lumotlarni tahlil qildi. Bundan maqsad — yosh ulg'ayishi asnosida oligodendrotsit hujayralarining qanday o'zgarishlarga yuz tutishini tadqiq qilish edi.

Miyaning normal faoliyatini ta'minlashda o'ta muhim hisoblangan oligodendrotsit hujayralarining asosiy vazifasi asab tolalarini o'rab turadigan mielin qobig'ini ishlab chiqishdan iborat. Tarqoq skleroz holatida esa aynan mana shu qobiqning zararlanishi kuzatiladi. Mutlaqo sog'lom odamlarda ham yosh o'tgani sari oligodendrotsit faoliyati susayishi mumkin.

Tadqiqotchilar qari kalamushlar miyasidagi shunday hujayralarni yosh kalamushlar miyasiga ko'chirib o'tkazdi. Jarayonda qari oligodendrotsitlar yangi, yosh miyada qayta jonlanib, faol ishlay boshladi. "Biz yosh kalamushning miya oligodendrotsitlarini qari kalamushning qotgan miyasiga ko'chirib o'tkazganimizda ular amalda qari hujayralar kabi ishlay boshlaganini ko'rab hayratga tushdik. Ayniqsa, qari hujayralar yosh miyaga ko'chirilganidan keyin o'zini qanday tutganini kuzatish qiziq bo'ldi. Ular xuddi yosh hujayralardek ishlay boshladi. Boshqacha aytganda, ular yasharib qoldi!" dedi guruh rahbarlaridan biri doktor Kevin Chalut.

Olimlar bu ilmiy yutuq yaqin yillarda tibbiyotda skleroz hamda miya faoliyati buzilishini davolashda samarali yordam berishiga ishonch bildirmoqda. Shuningdek, tadqiqotchilar bu borada yangi yo'nalish va davo usullarini ishlab chiqishni rejalashtirgan.

Iroda TOSHMATOVA
tayyorladi.



"KO'CHMAS MULK MENEJMENT KONSALTING" MCHJ mulkning boshlang'ich bahosi oshib borishi tartibida o'tkaziladigan ochiq auktsion savdolariga taklif etadi.

2019-yil 24-oktabr kuni soat 11:00 da Buxoro shahri, Kogon shossesi, 34-uy manzilda o'tkaziladigan ochiq auktsion savdolariga "Uzparavttrans" aksiyadorlik jamiyatining 2019-yil 11-sentabrdagi 2089-sonli buyurtma xatiga asosan jamiyat hisobida bo'lgan, Buxoro viloyati Qorovulbozor tumani, "Cho'lquvar" MFY hududida joylashgan umumiy yer maydoni 16 800,0 kv.metr, qurilish osti maydoni 1 070,5 kv.metrdan iborat AK-4 bino va inshootlari (ma'muriy bino, qorovulxona, klub, 2 ta omborxona, AYQSh operator xonasi, ayvon va hojatxona binosi) qo'yilmoqda.

Boshlang'ich bahosi — 346 730 366 (uch yuz qirq olti million yetti yuz o'ttiz ming uch yuz oltmish olti) so'm

Talabgorlar diqqatiga!

Auktsion savdolarida ishtirok etish uchun buyurtmanomalar "Savdo tashkilotchisi" tomonidan rasmiy ish kunlari soat 10:00 dan 16:00 ga qadar qabul qilinadi. (13:00 dan 14:00 gacha tushlik, shanba va yakshanba dam olish kunlari).

Auktsion savdosi g'olibga 10 kun muddatda oldi-sotdi shartnomasini tuzish majburiyati yuklatiladi.

Auktsion savdolarida ishtirok etish istagidagi talabgorlardan savdolarida ishtirok etish uchun belgilangan shakldagi buyurtmanomalar auktsion tashkilotchisining Buxoro shahri, Kogon shossesi, 34-uy manzili bo'yicha auktsion xabarnomasi e'lon qilingan kundan boshlab qabul qilinadi. Buyurtmanomalarni qabul qilish 2019-yil 23-oktabr kuni soat 18:00 da to'xtatiladi.

Auktsion savdolarida ishtirok etish istagidagi bo'lgan talabgorlar savdo tashkilotchisi

bilan tuziladigan zakalat puli to'g'risidagi kelishuv shartnomasiga asosan mulkning boshlang'ich bahosining 15 foizi maqdori-dagi zakalat pullarini to'lashlari hamda jismoniy shaxslardan pasport nusxasi, yuridik shaxslardan davlat ro'yxatidan o'tganligi to'g'risidagi guvohnoma, nizom nusxasi, vakil ishtirok etgan holatda esa ishonchnoma taqdim etilishi so'raladi.

Mazkur mulk 2019-yil 24-oktabr kuni o'tkaziladigan ochiq auktsion savdosida sotilmagan taqdirda takroriy Auktsion savdolari 2019-yil 31-oktabr va 7-noyabr kuni soat 11:00 da o'tkazilishini oldindan ma'lum qilamiz.

Takroriy savdo uchun buyurtmanomalarni qabul qilishning oxirgi muddati Auktsion savdosi boshlanishidan bir kun oldin soat 18:00 da to'xtatiladi. Auktsion savdolariga qatnashish uchun talabgorlar savdo tashkilotchisi bilan tuziladigan zakalat kelishuviga asosan mulk boshlang'ich bahosining 15 (o'n besh) foizidan kam bo'lmagan miqdorida zakalat pulini savdo kuniga qadar "Ko'chmas Mulk Menajment Konsalting" mas'uliyati cheklangan jamiyatining AKB "Kapital bank" Buxoro filialidagi quyidagi hisob raqamiga to'lashlari shart: 20208000100396752001, MFO: 01082, INN: 303068015, XXTUT: 83200.

Buyurtmanomalar qabul qilish va qo'shimcha ma'lumotlar bilan tanishish uchun manzil: Buxoro shahri, Kogon shossesi, 34-uy. Auktsion savdosi ham shu manzilda o'tkaziladi.

Telefon raqami: (94) 548-70-20;

E-mail: kmmk.realtor@gmail.com,

Web-sayt: www.kmmk.uz

Litsenziya RR 0213

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI

2020-yilga doktorantura (DSc), tayanch doktorantura (PhD) hamda mustaqil izlanuvchilikka

quyidagi ixtisosliklar bo'yicha (ishlab chiqarishdan ajralgan holda o'qish uchun) qabul e'lon qiladi:

Ixtisoslik shifri va nomi	Tayanch doktorantura (PhD)	Doktorantura (DSc)
07.00.03 — Jahon tarixi	2	
07.00.08 — Tarixshunoslik, manbashunoslik va tarixiy tadqiqot usullari	1	
08.00.01 — Iqtisodiyot nazariyasi	1	
08.00.09 — Jahon iqtisodiyoti	1	
09.00.03 — Falsafa tarixi	1	
10.00.05 — Osiyo va Afrika xalqlari tili va adabiyoti	2	1
10.00.06 — Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik	2	
10.00.10 — Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik	1	
23.00.02 — Siyosiy institutlar, jarayonlar va texnologiyalar	1	
23.00.04 — Xalqaro munosabatlar, jahon va mintaqa taraqqiyotining siyosiy muammolari	1	

Tayanch doktoranturaga

(PhD) talabgorlar quyidagi

hujjatlarni taqdim etishlari lozim:

- Ariza;
- Biografik ma'lumotnoma;
- Mehnat daftarchasining belgilangan tartibda tasdiqlangan nusxasi (ishlayotgan talabgorlar uchun);
- Oliy ta'lim muassasasi magistratura diplomi, yoki magistr darajasi joriy etilgunga qadar olingan oliy ma'lumot to'g'risidagi diplom nusxasi;
- Nashr etilgan ilmiy ishlar ro'yxati (ilmiy jurnallarda chop etilgan kamida bitta maqola hamda tegishli yo'nalishlar bo'yicha ikkitadan kam bo'lmagan ilmiy ishlar to'plamlariga kiritilgan ma'ruza tezislari), shuningdek ularning nusxalari;
- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Davlat stipendiyasi sohiblari tegishli hujjat nusxasini taqdim etadilar.

Qabul imtihonlari ro'yxati:

- Mutaxassislik;
- Chet tili.

Doktoranturaga (DSc) talabgorlar quyidagi hujjatlarni taqdim etishlari lozim:

- Ariza;
- Biografik ma'lumotnoma;
- Mehnat daftarchasining belgilangan tartibda tasdiqlangan nusxasi (ishlayotgan talabgorlar uchun);

• Oliy ma'lumot, fan nomzodi yoxud falsafa (PhD) yoki xorijiy davlatlarda unga tenglashtirilgan ilmiy darajaga ega bo'lganligi to'g'risidagi diplom nusxasi;

• Tadqiqot mavzusi bo'yicha ilmiy ma'ruza va fan doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan doktorlik dissertatsiyasi rejasining mufassal loyihasi;

• Ilmiy jurnallarda chop etilgan kamida uchta ilmiy maqolaga hamda ilmiy-amaliy konferensiyalar, seminarlar va tegishli ilmiy yo'nalishlar bo'yicha ilmiy ishlar to'plamlarida kamida ikkita tezislari nusxasi;

Doktoranturada o'qish uchun kirayotgan talabgorlar Kollegial organ tomonidan ixtisoslik bo'yicha suhbatdan o'tadilar.

Shuningdek, yuqorida zikr etilgan ixtisosliklar bo'yicha mustaqil izlanuvchilikka (ishlab chiqarishdan ajralmagan holda o'qish uchun) qabul e'lon qiladi.

Hujjatlar 2019-yil 15-sentabrdan 15-oktabrgacha institut asosiy binosining 211-xonasida qabul qilinadi

Manzil: Toshkent shahri, Mirobod tumani, Shahrisabz ko'chasi, 25-uy.

Ma'lumot uchun telefon raqami:

(71) 233-45-21, 236-79-65

Xotiram qatralari

Sinfdoshim qoldirgan konfetlar

Men sizga aytib bermoqchi boʻlgan voqeani hozir oilasi bilan Seulda yashaydigan, yosh boʻlishiga qaramasdan, koʻpchilik orzu qiladigan natijalar — namunali oila, shirin-shakar farzandlar, daromadli ish joyi, uy, mashina va hokazolarga erishgan, iqboli kulgan, samimiy bir tanishim soʻzlab bergan edi.

U har yili mehnat taʼtili payti rafiqasi va bolalari bilan Toshkentga keladi. Shunday kunlarning birida maktabning uchinchi yoki toʻrtinchi sinfida oʻqib yurgan kezlari oʻz boshidan kechirgan quyidagi voqeani hikoya qilib berdi:

— Oilada toʻngʻich farzand boʻlganim uchunmi yoki boshqa biror sababga koʻrami, bilmadim, ota-onam menga nisbatan qattiqqoʻl edilar.

Otam oddiy oʻqituvchi, onam esa bogʻchada tarbiyachi boʻlib ishlar, ularning maoshlari kun kechirishimizga baʼzi, uchma-uch yetib turardi. Shu bois tengqurlarim qatori maktabga har yili yangi kostyum-shim, yangi tuflari, yangi ryukzakda qatnashim uchun imkoniyatimiz yetmasdi. Sinfdoshlarim bilan maktab oshxonasida tushlik qilish uchun ham yudagilardan pul soʻramas, aniqrogʻi, soʻray olmas edim. Negaki, ota-onam roʻzgʻordan pul ortira olmayotganini koʻrib, bilib turardim. Goʻyoki men maktabda tushlikka deb pul olmasam, uyimizda mablagʻ tugab qoladigandek tuyulardi.

Maktabimizda iqtidorli oʻquvchilar jamlangan maxsus sinf tashkil etilib, meni ham oʻsha guruhga qoʻshib qoʻyishdi. Yangi sinfdoshlarimning koʻpchiligi oʻziga toʻq oila farzandlari edi. Ular sira avvalgi oʻrtoqlarimga oʻxshamas, qanaqadir dimogʻdor, nosamimiydek tuyulaverardi menga. Toʻgʻrisi, sira maktabga borishni istamay qoldim. U yerda oʻzimni kamsitilgan, ojiz his qilardim.

Sinfdoshlarimning aksariyati maktabga otasining "inomarka" siza kelishar, bayram, tugʻilgan kun hamda boshqa sanalar munosabati bilan oʻqituvchi va direktorimizga qimmatbaho sovgʻalar-u ota-onasidan "salom"lar keltirishardi.

Bir safar gazetaga oʻralgan roʻmolni qimtinibgina sovgʻa qilganimni eslarikanman, bu voqea atrofidagilarning bepissand nazari, oʻqituvchimizning esa oʻsha paytdagi yuz ifodasi, menga qilgan muomalasi hamon yuragimni ezadi...

Maktabimiz oshxonasida egnidagi oq xalati sargʻayib ketgan, doimo qoʻlida "Astra" sigareti tutab turadigan, badjahl, qovoqdor Samugʻ aka degan kishi oʻsha paytlari biz uchun eng

tansiq taom boʻlgan "xot-dog" tayyorlab sotardi. Kichkinasi ellik, kattasi yuz soʻm turardi. Tushlik vaqti boʻldi, deguncha hamma oʻquvchilar oʻsha yerga chopardi. Men esa maktab hovlisiga chiqib, u yerdagi ekinlarni sugʻorish uchun "qorovulxona"dan chiqarib qoʻyilgan shlangdan muzdek suv ichib qaytardim.

Bir kuni uyimizga buvim mehmon boʻlib keldi. Oʻshanda "pensiyamdan, bolam, olaqol", deb qoʻyarda-qoʻymay ikki yuz soʻm tutqazdi. Ishonasizmi, yoʻqmi, pulni olgach, uni berkitib qoʻyishga bir kun vaqtim ketdi. Sumkamning burchagiga tiqib qoʻydim, zum oʻtmay u yerdan olib, oʻzimga torroq kelib qolgan kostyumimning ichki choʻntagigiga soldim, koʻnglim toʻlmadi, keyin uni dastroʻmolimning ichiga taxlab, shimimning chap yon choʻntagigiga joylab qoʻydim.

Oʻqishga borgach, katta tanaffus payti men ham sinfdoshlarim qatori maktab oshxonasiga kirdim. Yuz soʻmga "xot-dog" sotib olib, uni boshqalar ham koʻrish uchun sinfxonamizga olib kelib yedim. Ertasi kuni ham xuddi shunday qildim. Darsdan soʻng uyga qaytayotib, oʻzimdanda nafratlanib ketdim. Boʻgʻzimga yigʻi aralash aybdorlik hissi tiqilib qolgandek, oʻzimni ogʻir gunoh qilgandek his qila boshladim. "Nega oʻsha mazali, yumshoq "xot-dog"ni bir oʻzim yeb qoʻydim? Nega ellik emas, yuz soʻmligini oldim. Axir u pulga toʻrttasini olib, yudagilarga ham keltirsam boʻlardi-ku?.." Sira oʻzimni kechirolmadim.

Bir kuni, hech esimdan chiqmaydi, sinfxonamizni taʼmir-latish uchun oʻqituvchimiz "remontga ikki yarim mingdan pul yigʻilishi"ni aytdi. Oʻsha kunioyq borib, bu eʼlonni yudagilarga aytdim. Oylik maosh chiqishi bilan "remont puli" yetkaziladigan boʻldi.

Oradan besh kun vaqt oʻtdi, bu orada sinfda mendan boshqa hamma aytilgan pulni ustozimizga topshirdi. U kishi esa meni butun sinf oldida turgʻizib qoʻyib, "Hoy, sen qachon opkelasan, faqat biz qolibmiz, deb uyingdagilarga ham tushuntir!" dedi.

Uyga borib, bor gapni aytdim. Hayriyatki, oʻsha kuni maosh olishgan ekan, yigirma besh dona yuz soʻmlikni ikki qayta

sanab, qoʻlimga tutqazishdi. Pulni olib, juda xursand boʻldim. Endi meni darsda hammaning oldida uyaldirishmaydi...

Ertasi kuni "mehnat" oʻqituvchisi kelmagani sababli birinchi va ikkinchi soatlarda jismoniy tarbiya faniga qoʻshildik. Uchinchi soatga kirish uchun hammadan avval sinfxonamizga oshiqdim. Chunki oʻqituvchimizning darsi boshlanishi bilan, qoʻlida oʻsha "remont puli"ni tezroq topshirishga shoshardim. Shunday qilib, sumkani ochdim. Ochdim-u, sumkamda pul yoʻqligini koʻrib, butun vujudimdan sovuq ter chiqib ketdi, qulogʻim shangʻillab, koʻzim tinayotganini his qildim. "Endi nima boʻladi, pulni yoʻqotdimmi?.." Faqat shu savol aylanardi miyamda. Ich-ichimdan Xudodan "Ishqilib, pul topilsin..." deb soʻrardim.

Oʻqituvchi xonaga kirdi. Dars boshlashidan avval menga qarab: "Remont pulini opkeldingmi?" deb soʻradi. Oʻrnimdan turib, yudandan pulni olganimni, lekin qayerdadir uni yoʻqotib qoʻyganimni aytib, yigʻlab yubordim. Ustoz esa oddiygina qilib, "Oʻzing ham yoʻqolib qolmasdan-da", dedi, xolos. Butun sinf kuldi — bolalar, qizlar, oʻrtoqlarim ham. Men yutina-yutina koʻz yosh toʻkib turaverdim... Ichimda faqat Xudodan "Ishqilib, pul topilsin..." deb soʻrardim...

Yuz-qoʻlimni yuvib, oʻzimga kelib olishim uchun ustozimiz meni darsdan chiqarib yubordi. Samugʻ akaning oshxonasi oldidagi qoʻl yuvish xonasiga kirib, ancha vaqt derazadan tikilib turdim. Keyin muzdek suvga yuzimni chaydim. Bu orada katta tanaffus tugab, toʻrtinchi soat boshlanishiga qoʻngʻiroq chalindi. Qoʻl yuvish xonasidan chiqib, sinfxonamizga qarab borayotganimda, orqamdan qiz bolaning "yigʻlo-o-o-q" deb masxara ohangida chaqirgani va koʻpchilikning baland ovozdagi kulganini eshitildi.

Vujudimda yana boya-gi ogʻriq uygʻondi. Orqamga oʻgirilib qararasam, oʻzimning sinfdosh qizlar, ularning ortida esa oʻgʻil bolalarimiz qoʻllarida bir-ikki tishlangan "xot-dog"larini tutib, tirjayganicha turishardi.

"Hm-m, yigʻloq, qalesan?" dedi Maftuna iljayib. Bolalar battar xoxolab kulib yuborishdi. Shu payt, oʻzim ham hayronman, qayerdan paydo boʻldi buncha gʻazab, qayerdan keldi shuncha jurʼat? Toʻsatdan, oʻzim anglamagan holda, gʻayriix-tiyoriy ravishda Maftunaning yuziga musht tushirib yubordim. Boyaqish buni kutmagan ham edi. Tap etib yiqilib tushdi-yu,

ikki qoʻli bilan yuzini changalab jim boʻlib qoldi. Qiy-chuv boʻlib ketdi. Kim nima deyotganini eshitmasdim. Qizlar Maftunaning oʻrmidan turishiga yordamlashishdi.

Shart oʻgirilib, sinfxonamizga ketdim. Dars allaqachon boshlanib ketganiga qaramasdan, Maftuna va uning toʻrt dugonasi hamon xonaga kelgani yoʻq. "Nima boʻldi ekan? Tinchlikmi-kan?" deb xavotirlandim. Keyin "oʻzi aybdor!" deya oʻzimga tasalli berishga urindim.

Xullas, u oʻsha kuni darsga kirmadi. Keyinroq bilsam, labi yorilib, rosa qonagan, kiyimlariga ham qon tomchilari tekkan, shuning uchun uyiga ketib qolgan ekan.

Sinfdoshlarim menga "Endi oʻlasan, Maftunni adasi "kotta" odam, jinni, nima qip qoʻyding?" deyishar, mening esa qulogʻimga gap kirmas edi.

Tushkun bir holatda uyga yetib bordim. Hech kimga bu haqida gapirmadim. Xuddi tok urgandek karaxt holda edim. Kechga yaqin onam "Nega pulingni tashlab ketding?" deb soʻrab qoldi. "Remont puli"ni uyda qoldirib ketgan ekanman. Ammo pulning topilgani ham koʻnglimni zarracha yorita olmadi. "Uyga vazifa"larni ham tayyorlamadim, dars jadvalini ham yangilamadim. Ertalab sumkamni qanday turgan boʻlsa, shundayligicha yelkamga osib, yana oʻsha "jonajon" maktabimga yoʻl oldim.

Sinfga kirib, joyimga oʻtirdim. Maftuna koʻrinmadi. Oʻqituvchimiz ham darsga kech qolayotgan edi. Hamon karaxt alfozda, boshimda turli xayollar aylanayotgan bir paytda, toʻsatdan eshik ochilib, ustozimiz menga yeb qoʻygudek qaradi va u bilan direktorning xonasiga borishimiz kerakligini aytdi. Aytilgan joyga ustozimiz bilan yonma-yon borarkanman, uning yuziga sekingina qaradim. Hozirgina yigʻlagani shundoqqina bilinib turardi.

Direktorimiz xonasidan chiqib, bizni kutib turgan ekan. Bir ogʻiz ham gapirmay, qoʻlimdan tortqilab maktab hovlisiga olib chiqdi. Dars mahali boʻlgani bois hovlida hech kim koʻrinmas, faqat chekkaroqda bir qora "inomarka" turardi. Ertalab maktabga kirayotgan paytimda ham, nazarimda, bu mashina shu yerda boʻlgan, faqat men unga eʼtibor bermay oʻtib ketganman.

Direktor meni mashinaning oldiga boshlab borib, oʻzi orqaga qaytib ketdi. Hech nimani tushunmay, dovdirab turaverdim. Mashinaning old eshigi ochilib,

"Oʻtir!" degan buyruq boʻldi. Sekin old oʻrindiqqa oʻtirdim. Salom berish ham yodimdan chiqib ketibdi. Ruldagi kishi menga sovuq razm soldi. Men ham unga tikildim. Keyin orqa oʻrindiqda koʻzlari shishib ketgan, qoʻlida roʻmolcha bilan labini berkitib, piqillab yigʻlab oʻtirgan Maftunaga koʻzim tushdi. Uning yonida basavlat bir kishi, toʻgʻrisi, yuzini aniq koʻrolmadim.

U kishi "Qani, kechirim soʻra!" deb zalvorli ohangda doʻq qildi. Men endigina Maftunadan uzr soʻrash uchun taraddudlangan ham edimki, boyagi odam "Tez kechirim soʻra undan!" deb qattiq baqirdi va sharaqlatib qizining yuziga tarsaki tushirib yubordi.

Butunlay oʻzimni yoʻqotib qoʻydim. Hech nimaga aqlim yetmas, umuman kutilmagan bir hol yuz berayotgan edi.

— Kechir, ayb manda! — deb hiqillab-hiqillab battar yigʻladi sinfdoshim.

Soʻngra Maftunaning dadasini menga: "Endi darsingda boraqol", dedi. Indamay, oyoq-qoʻlim uvishib, xonaga qaytdim. U yerda hamma meni kutib oʻtirgan ekan.

"Nima boʻldi? Nima deyishdi?" deya birinchi boʻlib oʻqituvchimiz savol berdi, keyin boshqalar. Men nima deyishni bilmayotgan, aniqrogʻi, ularga javob berishni istamayotgan edim.

Joyimga borib oʻtirarkanman, boyagi hayajon, qoʻrquv va allaqanday tushunib boʻlmas hislar taʼsirida terlab ketganimni, qoʻlimda esa qattiq gʻijimlangan, hoʻl boʻlib ketgan "remont puli" borligini koʻrdim...

Xayolim haliyam boyagi basavlat kishining tutgan yoʻlida: "Uning bu ishi — olijanoblikmi yo tarbiyaning bir usulimi, bu qanaqa sinoat?" U qanday odam oʻzi? Nega meni emas, oʻz farzandini urishdi?.. Bu savollarga javob topolmay qiynalar va ayni vaziyatda xavotirda turardim.

Kun qanday oʻtganini ham bilmayman. Oʻsha kuni Maftuna darsga kirmadi. Ertasi kuni esa oʻqituvchimiz meni Maftuna bilan yonma-yon oʻtirgʻizib qoʻydi.

Kunlar shu zaylda oʻtaverdi. Maftuna bilan bir ogʻiz ham gaplashmadik. Lekin bir kuni darslar tugagach, u daftarimning ustiga ikki dona konfet qoʻyib chiqib ketdi.

Bu uning men bilan xayrlashuv shirinligi boʻlgan ekan. Maftunaning boshqa maktabga oʻtib ketgani haqida keyinroq sinfdoshlarimizdan eshitdim...

NURALI

Pedagogik innovatsiyalar, kasb-hunar ta'limi boshqaruv hamda pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti tayanch doktoranturaga va mustaqil izlanuvchilikka quyidagi ixtisoslik bo'yicha qabul qiladi:

Tayanch doktoranturaga 13.00.05 — Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi — 4 ta o'rin;

Doktoranturaga 13.00.05 — Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi — 1 ta o'rin.

Tayanch doktoranturaga va mustaqil izlanuvchilikka o'qishga kirishda talabgorlar quyidagi hujjatlarni taqdim etadilar:

1. Ariza.
2. Qisqacha biografik ma'lumotnoma.
3. Mehnat daftarchasining belgilangan tartibda tasdiqlangan nusxasi (ishlayotgan talabgorlar uchun).
4. Oliy ta'lim muassasasi magistraturasi diplomi yoki oliy ma'lumot (mutaxassislik dasturlari bo'yicha) to'g'risidagi diplom nusxasi.

5. Nashr etilgan ilmiy ishlar ro'yxati, shuningdek, ularning nusxalari.

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Davlat stipendiyasi sohiblari tegishli hujjat nusxasini taqdim etadilar.

13.00.05 — Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi bo'yicha doktoranturaga va mustaqil izlanuvchilikka kiruvchi talabgorlar quyidagi hujjatlarni topshiradilar:

1. Ariza.
2. Qisqacha biografik ma'lumotnoma.
3. Mehnat daftarchasining belgilangan tartibda tasdiqlangan nusxasi (ishlayotgan talabgorlar uchun).
4. Oliy ma'lumot, fan nomzodi yoxud falsafa doktori (PhD) yoki xorijiy davlatlarda unga tenglashtirilgan ilmiy darajaga ega bo'lganligi to'g'risidagi diplom nusxasi.

5. Tadqiqot mavzusi bo'yicha ilmiy ma'ruza va fan doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan doktorlik dissertatsiyasi rejasining mufassal loyihasi.

6. Nashr etilgan ilmiy ishlar ro'yxati, shuningdek, ularning nusxalari.

Hujjatlar 15-sentabrdan 15 oktabrgacha qabul qilinadi.

Tayanch doktoranturaga kirayotgan shaxslar mutaxassislik va chet tili (ta'limning oldingi darajalarida o'rganilgan xorijiy til) bo'yicha kirish imtihonlarini topshiradilar.

Kirish imtihonlari 1 — 25-noyabr davrida bo'lib o'tadi.

Mustaqil izlanuvchilikka kiruvchi talabgorlar ixtisoslik bo'yicha suhbat natijalari va institut qabul komissiyasining tegishli xulosasi asosida qabul qilinadi.

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti 2020-yil uchun quyidagi ixtisosliklar bo'yicha tayanch doktoranturaga, doktoranturaga va mustaqil izlanuvchilikka qabul e'lon qiladi:



№	Ixtisoslik shifri	Ixtisoslik nomi	Ajratilgan kovota	
			Tayanch doktoranturaga	Doktoranturaga
1	07.00.01	O'zbekiston tarixi	1	1
2	13.00.01	Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi	4	-
3	13.00.02	Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)	6	-
4	13.00.03	Maxsus pedagogika	1	-
5	13.00.05	Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi	1	-
6	13.00.07	Ta'lim menejmenti	1	-
7	13.00.08	Maktabgacha ta'lim nazariyasi va metodikasi	1	-
8	19.00.01	Psixologiya tarixi va nazariyasi. Umumiy psixologiya. Shaxs psixologiyasi	1	-
JAMI			16	1

Tayanch doktoranturada o'qishga talabgorlar quyidagi hujjatlarni taqdim etadilar:

- ariza;
- qisqacha biografik ma'lumotnoma;
- mehnat daftarchasining belgilangan tartibda tasdiqlangan nusxasi (ishlayotgan talabgorlar uchun);
- oliy ta'lim muassasasi magistraturasi diplomi, oliy ma'lumot (mutaxassislik dasturlari bo'yicha) to'g'risidagi diplom nusxasi;
- nashr etilgan ilmiy ishlar ro'yxati, shuningdek, ularning nusxalari.

Doktoranturada o'qishga talabgorlar quyidagi hujjatlarni taqdim etadilar:

- ariza;
- qisqacha biografik ma'lumotnoma;
- mehnat daftarchasining belgilangan tartibda tasdiqlangan nusxasi (ishlayotgan talabgorlar uchun);
- oliy ma'lumot, fan nomzodi yoxud falsafa doktori (PhD) yoki xorijiy davlatlarda unga tenglashtirilgan ilmiy darajaga ega bo'lganligi to'g'risidagi diplom nusxasi;

tadqiqot mavzusi bo'yicha ilmiy ma'ruza va fan doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan doktorlik dissertatsiyasi rejasining mufassal loyihasi;

nashr etilgan ilmiy ishlar ro'yxati, shuningdek, ularning nusxalari.

Hujjatlar 2019-yil 15-sentabr—15-oktabr kunlari qabul qilinadi.

Tayanch doktoranturada o'qish uchun talabgorlar mutaxassislik va chet tili (ta'limning oldingi darajalarida o'rganilgan xorijiy til) bo'yicha kirish imtihonlari topshiradilar. Doktoranturada o'qish uchun kirayotgan talabgorlar ixtisoslik bo'yicha suhbatdan o'tadilar.

Qo'shimcha ma'lumot olish uchun Toshkent davlat pedagogika universitetining Ilmiy-tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi.

Telefon raqami: (71) 276-75-26, 276-76-87.

Manzil: 100185, Toshkent shahri, Bunyodkor ko'chasi, 27-uy.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi quyidagi umumta'lim fanlari bo'yicha malakali mutaxassislarni ishga qabul qilish uchun tanlov E'LON QILADI:

- rus tili va adabiyoti;
- matematika (o'zbek va rus);
- biologiya (o'zbek va rus);
- kimyo (o'zbek va rus);
- fizika (o'zbek va rus);
- ona tili va adabiyot.

Tanlovda ishtirok etish uchun nomzodlar Davlat test markazi direktori nomiga ariza, o'zlari haqida ma'lumotnoma (obyektivka), kadrlarni hisobga olish bo'yicha shaxsiy va-raqa, ma'lumoti to'g'risidagi hujjat va pasport nusxalarini topshirishlari lozim.

Arizalar e'lon chop etilgan sanadan boshlab 30 kun davomida qabul qilinadi.

Manzil: Toshkent shahri, Bog'ishamol ko'chasi, 12-uy.

Murojaat uchun telefon: (71) 235-61-27, faks: (71) 234-71-84.

Elektron manzil: ok@dtm.uz

Bolalar sporti

Chempionlarni yetishtirayotgan maskan

Yurtboshimizning yosh avlod ma'naviyatini yuksaltirish, ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo'yicha 5 ta muhim tashabbusning ikkinchi yo'nalishi yoshlarni jismoniy chiniqtirish, ularning sport sohasida qobiliyatini namoyon qilishlari uchun zarur sharoitlar yaratishga qaratilgan.

Bu borada Bekobod shahar jismoniy tarbiya va sport bo'limi tomonidan qator ishlar olib borilmoqda. Tashabbus bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan Bekobod shahar jismoniy tarbiya va sport bo'limi boshlig'i Sanjar Karimov quyidagilarni so'zlab berdi:

—Yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish maqsadida shahrimizdagi 22 ta sport zali, 3 ta suzish havzasi, 3 ta stadion sportsevar bolalar ixtiyoriga berilgan. Shahardagi bolalar va o'smirlar sport maktabi tomonidan olib borilayotgan ishlar diqqatga sazovor. Sport maktabida mavjud 14 ta sport yo'nalishida mashg'ulotlar olib borish uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Sport maktabida 54 nafar oliy va xalqaro toifadagi sport ustalari faoliyat yuritadi, ular 1 781 o'quvchiga sport sohasidagi qobiliyatini yuzaga chiqarishi uchun karate, boks, badiiy gimnastika, shaxmat, taekvondo, universal jang to'garaklarida mintazam mashg'ulot o'tishmoqda.

Yil boshidan xalqaro sport musobaqalarida faol ishtirok etgan sport maktabi o'quvchilaridan 3 nafari sambo, universal jang bo'yicha jahon kubogida g'olib chiqqan bo'lsa, 8 nafari og'ir atletika va shaxmat bo'yicha Osiyo chempionatida qatnashdi. 78 nafar yosh sportchi esa yurtimizda o'tkazilgan musobaqalarda yuqori o'rinlarga sazovor bo'ldi.

Darhaqiqat, Prezidentimiz tomonidan

ilgari surilgan 5 muhim tashabbus mazmun-mohiyatiga ko'ra, mustahkam irodali, chuqur bilimli, hech kimdan kam bo'lmagan barkamol avlodni voyaga yetkazish yo'lida dasturilamal bo'lmoqda.

Suratlarda: Bekobod shahridagi bolalar-o'smirlar sport maktabi to'garak mashg'ulotlaridan lavhalar.

Sultonboy DEHQONOV
olgan suratlər.



Karate bo'yicha murabbiy Xurshid Shodibekov mashg'ulot jarayonida.



Boks bo'yicha xalqaro toifadagi sport o'quvchisi, karate bo'yicha O'zbekiston ustasi Kamoliddin Ahmedov mashg'ulotda.



Shahobiddin Kushboyev — 3-sinf o'quvchisi, karate bo'yicha O'zbekiston chempioni.



Badiiy gimnastika.



Universal jang bo'yicha murabbiy Dilshod Halimov mashg'ulotda.

Marifat

TA'SIS ETUVCHILAR:

O'zbekiston Xalq ta'limi vazirligi,
O'zbekiston Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi,
O'zbekiston Ta'lim, fan va madaniyat xodimlari
kasaba uyushmasi Respublika kengashi.

Bosh muharrir: Husan NISHONOV

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida
2006-yil 22-dekabrda 0067-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Indeks: 149, 150. G-929. Tiraj 11626.
Hajmi 4 bosma tabaq. Ofset usulida bosilgan,
qog'oz bichimi A-3. Bahosi sotuvda erkin narxda.

TELEFONLAR:

qabulxona — (71) 233-50-55;
kotibiyat — (71) 233-99-15;
reklama va marketing bo'limi —
(71) 233-42-92 (faks), (71) 236-54-17.

ISSN 2010-4416



"Marifat" dan
materiallarni ko'chirib
bosish tahririyat
ruxsati bilan amalga
oshirilishi shart.

Tahririyatga kelgan
qo'lyozmalar taqiriz
qilinmaydi va mul-
lifa qaytarilmaydi.

MANZILIMIZ:

100083, Toshkent shahri,
Matbuotchilar ko'chasi, 32-uy.
Web-site: www.marifat.uz

Dizaynerlar: Melohat Toshova, Faxriddin Rahimov.
Navbatchesi muharrir: Shoir Boymurodova.
Navbatchesi: Faxriddin Rahimov.

Gazeta haftaning chorshanba va shanba kunlari chiqadi.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi.
Korxonalar manzili: Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

O'ZA yakuni — 00.30 Topshirildi — 00.45

1 2 3 5 6